

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG’LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
ABU ALI IBN SINO NOMIDAGI BUXORO DAVLAT TIBBIYOT
INSTITUTI**

YULDASHOVA SHAXLO TOYIROVNA

**TIBBIYOT OLIY TA’LIM MUASSASALARI TALABALARINI
O‘QITISHNING INTEGRATIV-KREATIV IMKONIYATLARI**

(monografiya)



Buxoro – 2024

Muallif:

Yuldashova Shaxlo Toyirovna

**Preventiv tibbiyot, jamoat salomatligi
va sog'liqni saqlash menejmenti
kafedrasi PhD, katta o'qituvchi**

Taqrizchilar

Kurbanova G.N.

**BuxDTI Ijtimoiy fanlar kafedrasi
professori, pedagogika fanlar
doktori**

Qoyilova M.D.

**BuxDPI Biologiya kafedrasi
dotsenti**

ANNOTATSIYA

Jahonda yetakchi tibbiy oliy ta'lim muassasalari hamda ilmiy tadqiqot markazlarida talabalarda integrativ-kreativ fikrlashni rivojlantirishning kompleks chora-tadbirlarni ko'zda tutuvchi ijtimoiy dasturlar ishlab chiqish va ushbu jarayonda huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ta'lim va sog'liqni saqlashga doir ustuvor vazifalarni aniq belgilash borasida amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bo'lajak tibbiyot xodimlarida shaxsiy kompetensiyalarni tayanch layoqatlar bilan o'zaro uyg'unligini ta'minlash orqali kasbiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, kasbiy faoliyatda samarali muomala usullarini qo'llay olish malakasini shakllantirish muhim dolzarblik kasb etadi.

Dunyoda fanlararo integratsiya asosida talabalarni kreativ fikrlashga o'rgatish orqali yetuk mutaxassis sifatida voyaga yetkazish jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy rivojlanishining asosiy omillaridan biri sifatida qaraladi va bugungi kunda sotsiologiya, pedagogika, psixologiya va boshqa tegishli mutaxassislik fanlarining doimiy tadqiqot muammosi hisoblanadi. Hozirgi kunda oliy tibbiy ta'limda serqirra va chuqur bilimga ega, yuksak insonparvar, kreativ fikrlovchi, o'zgaruvchan shart-sharoitlarga tez moslashuvchan xususiyatlar mujassamlashgan shifokor shaxsini kasbiy rivojlantirish asosiy maqsad bo'lib qolmoqda.

Mamlakatimizda ijtimoiy hayotining barcha sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarning maqsadi – inson va uning manfaatlari, xavfsizligi va farovonligini ta'minlash hamda barkamol avlodni voyaga yetkazishga qaratilgan. Respublikamizda intellektual salohiyatli bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash masalasi ham davlat ahamiyatiga molik bo'lib, ushbu masalani hal qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish vazifasi belgilangan. Shuning uchun ham bo'lajak shifokor-mutaxassislarni integrativ yondashuv negizida kasbiy

faoliyatga tayyorlashni takomillashtirish, ularga mos innovatsion metod va texnologiyalarni ishlab chiqish, shuningdek, ilmiy-metodik ta'minotni tayyorlash ushbu sohaning dolzarb yo'nalishlaridan hisoblanadi. Bunda ushbu sohadagi davlat siyosatini e'tiborga olgan holda tayyorlangan bo'lajak shifokorlar mamlakatimiz barcha jabhalarini intellektuallashtirishga munosib hissa qo'sha oladigan mutaxassislar bo'lib yetishadi.

АННОТАЦИЯ

Разработка социальных программ, предусматривающих комплексные меры по развитию интегративно-творческого мышления у студентов ведущих медицинских вузов мира и научно-исследовательских центров, и в этом процессе приоритетные задачи, связанные с правовой, социально-экономической, образовательной и здравоохранительной деятельностью. По точному определению проводятся практические исследования. Важно развивать у будущих медицинских работников способность профессионально мыслить, обеспечивая совместимость личностных компетенций с базовыми способностями, и формировать умение использовать эффективные методы лечения в профессиональной деятельности.

В мире на основе междисциплинарной интеграции развитие студентов как полноценных специалистов путем обучения их творческому мышлению рассматривается как один из главных факторов социального, экономического и духовно-воспитательного развития общества, и сегодня это рассматривается как постоянная исследовательская проблема социологии, педагогики, психологии и других соответствующих специальных дисциплин. В настоящее время основной целью высшего медицинского образования является профессиональное развитие врача, обладающего яркими и глубокими знаниями, высокогуманитарного, творческого мыслителя, способного быстро адаптироваться к меняющимся условиям.

Целью реформ, реализуемых во всех сферах общественной жизни нашей страны, является обеспечение безопасности и благополучия человека, его интересов, воспитание зрелого поколения. В нашей республике вопрос подготовки будущих специалистов, обладающих интеллектуальным потенциалом, также имеет государственное значение, и решению этого вопроса уделяется особое внимание. В стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы дальнейшее совершенствование системы непрерывного образования, увеличение возможностей предоставления качественных образовательных услуг, подготовка

высококвалифицированных кадров в соответствии с современными потребностями рынка труда, международная оценка качества образования и обучения определена задача внедрения стандартов. Поэтому совершенствование профессиональной подготовки будущих врачей-специалистов на основе интегративного подхода, разработка подходящих для них инновационных методов и технологий, а также подготовка научно-методического обеспечения являются одними из актуальных направлений данной области. В связи с этим будущие врачи, подготовленные с учетом государственной политики в этой области, станут специалистами, способными внести достойный вклад в интеллектуализацию всех сфер нашей страны.

ANNOTATION

The development of social programmes that provide comprehensive measures for the development of integrative and creative thinking in students of the world's leading medical universities and research centres, and in this process, priority tasks related to legal, socio-economic, educational and health care activities. on the exact definition are conducted practical research. It is important to develop in future medical workers the ability to think professionally, ensuring the compatibility of personal competences with basic abilities, and to form the ability to use effective methods of treatment in professional activities.

In the world on the basis of interdisciplinary integration, the development of students as full-fledged specialists by training them to think creatively is considered as one of the main factors of social, economic and spiritual-educational development of society, and today it is considered a permanent research problem of sociology, pedagogy, psychology and other relevant special disciplines. At present, the main goal of higher medical education is the professional development of a doctor with bright and profound knowledge, highly humanitarian, creative thinker, able to quickly adapt to changing conditions.

The purpose of the reforms implemented in all spheres of social life of our country is to ensure the safety and well-being of a human being, his/her interests, and the upbringing of a mature generation. In our Republic, the issue of training future specialists with intellectual potential is also of state importance, and special attention is being paid to resolving this issue. In the strategy of development of new Uzbekistan for 2022-2026 years, further improvement of the system of continuous education, increase of opportunities to provide quality educational services, training of highly qualified personnel in accordance with the modern needs of the labour market, international assessment of the quality of education and training is defined the task of introduction of standards. Therefore, the improvement of professional training of future doctors-specialists on the basis of integrative approach, the development of innovative methods and technologies suitable for them, as well as the preparation of scientific and methodological

support are among the topical directions of this field. In this regard, future doctors, trained with due regard to the state policy in this field, will become specialists capable of making a worthy contribution to the intellectualisation of all spheres of our country.

MUNDARIJA

KIRISH	10
I BOB. TIBBIYOT OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINI O'QITISHDAGI INTEGRATIV-KREATIV IMKONIYATLARINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI 1.1. Tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalarini o'qitishdagi dolzarb pedagogik muammolar 1.2. Bo'lajak tibbiyot xodimlarini integrativ-kreativ yondashuv asosida o'qitishning mazmun mohiyati 1.3. Talabalar klinik tafakkurini rivojlantirishning metodik ahamiyati	13 13 21 40
II BOB. TIBBIYOT OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINI O'QITISHNING INTEGRATIV-KREATIV IMKONIYATLARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI 2.1. Tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalarini o'qitishning integrativ-kreativ imkoniyatlari shakl, metod va vositalari 2.2. Talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonini takomillashtirishning innovatsion tamoyillari 2.3. Bo'lajak shifokorlarni o'qitishning integrativ-kreativ imkoniyatlarini rivojlantirishning takomillashtirilgan modeli	53 53 60 71
III BOB. PEDAGOGIK TAJRIBA-SINOV ISHLARI VA OLINGAN NATIJALAR TAHLILI 3.1. Pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil qilish va o'tkazish metodikasi 3.2. Pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalarining matematik statistik tahlili	94 94 107
XULOSALAR	117
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	119

Kirish

Tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalarini o'qitishning integrativ-kreativ imkoniyatlarini yanada kengaytirish jarayoni bugungi kunning ahamiyatga ega pedagogik muammosi sanalib, talabalarning bo'lajak kasbiy jarayonida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishiga imkon yaratadi.

Har bir ta'lim beruvchi pedagogning asosiy maqsadi – o'quvchisini mustaqil ravishda fikrlashga, o'z oldiga muammoli vaziyatni qo'yishga, berilgan topshiriqqa yechim topishga o'rgatish hisoblanadi. Hozirgi davrda zamonaviy o'quv dasturlarini hisobga olganimizda, ixtisoslashtirilgan ta'lim tizimida tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalariga tibbiyotga doir fanlarni o'zlashtirishda bir qancha muammolar bor. Ushbu fanlarni o'rganish soatlari qisqartirildi, ammo ta'lim oluvchilarga qo'yiladigan talablar o'zgarmadi [111, 140; 543, 164].

Integratsiya – bu mantiqiy tafakkurni rivojlantirish, mafkurasini kengaytirish va ta'lim jarayonini motivlashtirish uchun har doim yuzlanadigan fanlararo aloqalar bo'libgina qolmay, boshqa jihatdan – hosil qilinadigan bilimlarni bir butunga birlashishi hamdir. Integratsiyalashgan dars puxta rejalashtirishni talab qiladi, chunki talaba bitta mavzu bo'yicha umumlashtirilgan xulosaga kelishi yoki ko'z oldiga keltirishi kerak bo'ladi [111, 128; 187].

Integratsiya jarayoni pedagogik g'oyasining rivojlanishiga ilmiy bilimlarning rivojlanishi sezilarli darajada ta'sir qiladi. Integratsiya jarayoni ta'limning sifat jihatidan yangi bosqichida fanlararo aloqalarni amalga oshirishning eng asosiy shakli hisoblanadi.

Integratsiyalashgan dars – bu bitta tushuncha, mavzu yoki hodisani o'rganishda bir vaqtning o'zida bir necha fanlardan olgan bilimlarni birlashtirgan dars turidir. Integratsiyalashgan darsning maqsadlariga quyidagilar kiradi: ushbu fanlarni o'qitish jarayonida o'quvchilarning tafakkurini rivojlantirish uchun maqbul sharoitlarni yaratish, o'quv jarayonining ayrim qarama-qarshiliklarini bartaraf etish, o'quvchilarning ushbu fanlarga qiziqishini oshirish va rivojlantirish [111, 128; 188].

Fanlararo integratsiya ko'plab muammolarni hal qilish imkonini beradi. Talabalarda fanni o'zlashtirish bilan bir vaqtda aqliy jarayonlar – qiyoslash, inkor qilish, isbotlab berish, aqliy qiziqish, o'ziga xos adaptiv fikrlash, o'rganilayotgan fanga ilmiy yondashish orqali mantiqiy fikrlash shakllanadi. Integratsiyalashgan darslarda talabalar tomonidan olingan yetarlicha katta hajmdagi ma'lumotlar qisqa muddatli va uzoq muddatli xotirani o'z ichiga oladi, bilimlarni tizimlashtiradi, bu esa xotirani tartibga solish va fikrlashning tejamkorlik tamoyiliga rioya qilish imkonini beradi. Integratsiyalashgan dars chegaraviy muammolarni ko'rib chiqish, ularning ko'p qirraliligini, ahamiyatini va turli sohalarda qo'llanilishini ko'rish imkonini beradi [111, 128; 188].

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, tibbiyot oliy ta'lim muassasalari ta'lim jarayonini integrativ-kreativ asosda tashkil etish orqali bir necha fan predmetlarida boshqa-boshqa yo'nalish muammosi sifatida o'qitiladigan ayni bir tushuncha, mavzu yoki jarayonni samarali o'zlashtirishga erishiladi, integratsiyalashgan ta'lim jarayonida esa ikki yoki undan ortiq fanlarni birlashtirilishi tushuniladi, bu jarayonda pedagog kreativ fikrlaydigan bo'lishi, shuningdek, har tomonlama, yuksak bilim darajasiga ega bo'lishi maqsadga muvofiqdir [127; 206, 171]. Darslarida interfaol o'qitish usullaridan keng foydalanishi, o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga harakat qilishi lozim. Turli fanlarni o'qitishda o'quvchilar kreativ tafakkurini faollashtirish katta ahamiyat kasb etadi.

I BOB. TIBBIYOT OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINI O'QITISHDAGI INTEGRATIV-KREATIV IMKONIYATLARNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

1.1. Tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalarini o'qitishdagi dolzarb pedagogik muammolar

Dunyoda tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalarida intellektual qobiliyatni rivojlantirish, ularning kreativ tafakkuri, axloqiy, shu bilan birga estetik hissiyotlarini tarbiyalash, ta'limga qiziqish va intilishlari, o'ziga, atrofdagi dunyoga hissiy munosabatini rivojlantirishga qaratilgan ta'lim mazmunini shakllantirish, bo'lajak shifokorlarning kasbiy faoliyati uchun qadriyatlarni shakllantirish tizimini rivojlantirish, oliy tibbiyot ta'limida talabalarning intellektual qobiliyatini namoyon etishga yordam beradigan zamonaviy ta'lim texnologiyalari ishlab chiqilmoqda [120; 114].

Bo'lajak tibbiyot xodimlarida shaxsiy kompetensiyalarning tayanch layoqatlar bilan o'zaro uyg'unligini ta'minlash orqali kasbiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, kasbiy faoliyatda samarali muomala usullarini qo'llay olish malakasini shakllantirish muhim dolzarblik kasb etadi.

Mamlakatimizda ijtimoiy sohani jadal rivojlantirish, aholining salomatligini mustahkamlash, bo'lajak tibbiyot xodimlarini tayyorlashning samarali mexanizmlarini ishlab chiqishga katta e'tibor qaratilmoqda.

“Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos, yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan”. O'quvchilarni tayyorlashning integratsiya va ijodiy imkoniyatlarini yanada kengaytirish asosida metodikani shakllantirish, fanlararo integratsiya asosida bo'lajak tibbiyot xodimining kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishdagi ijtimoiy-pedagogik ahamiyatini aniqlash zarurligini taklif qiladi [2, 120].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev yoshlar tarbiyasi va ma'naviyatini rivojlantirishga katta e'tibor qaratish lozimligini qayta-qayta takrorlaydilar. O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 28 yilligiga bag'ishlangan tantanali yig'ilishdagi nutqida: "Bugungi kunda eng yaxshi xorijiy oliy o'quv yurtlarida tahsil olgan, xorijiy tillarda so'zlaydigan, zamonaviy boshqaruv uslublariga ega minglab yuksak bilimli yoshlar hayotga kirib kelmoqda. Ular bizning umidimiz, kelajagimiz. Shu bois davlat va jamiyat bundan buyon ham yoshlarni keng imkoniyatlar bilan ta'minlash, ularning talab va manfaatlarini ta'minlash, qobiliyatini namoyon etish, hayotda o'z o'rnini topishiga yordam berish, mas'uliyatli lavozimlarga targ'ib etishga qaratiladi. Shunga amin bo'ldimki, aziz farzandlarimiz xalqning bunday e'tibor va g'amxo'rlikiga munosib bo'ladilar. Intellektual salohiyati, kuch-qudrati, milliy g'oyaga sodiqligiga tayanib, ular Vatanimizni ulug'laydi va bu yo'lda ularga baxt va omad tilayman" deb ishonch bilan ta'kidlagan edilar [4].

Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkilotining dunyoda koronavirus pandemiyasi deb rasman e'lon qilishi bilan ko'pgina davlatlar qatorida O'zbekiston ta'lim maskanlarida ham pandemiya sabab hali o'zlari uchun notanish bo'lgan – masofaviy o'qitish tizimiga tezlik bilan o'tildi. Masofaviy ta'limga o'tishda oliy ta'lim professor-o'qituvchilari oldida ko'plab javobi yo'q savollar tug'ila boshladi [130; 138]. Bu, o'z navbatida, talabalarning bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishi uchun qator qiyinchiliklarning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Shu bilan birga, onlayn tartibda talabalarning bilimini obyektiv baholashda bir qancha qiyinchiliklar yuzaga keladi. Karantin bahonasida oliy o'quv yurtlaridagi bilim olish jarayoniga boshqacha, ya'ni bilim – o'quv yurti uchun emas, balki talaba uchun deb qarashga imkon tug'ildi. Bu, ayniqsa, tibbiyot oliy o'quv yurti talabalarini o'qitishda yaqqol namoyon bo'ldi [131].

Masofaviy ta'lim talabalarga o'rganilayotgan asosiy axborot miqdorini olish, mashg'ulot davomida o'qituvchi bilan interfaol muloqot qilish, shuningdek, materialni o'zlashtirish uchun mustaqil ishlarni amalga oshirish imkonini beruvchi texnologiyalar majmuyiga aylandi. Masofaviy ta'lim hozirgi kunda bir qator

afzalliklar tufayli juda mashhur. Bu, birinchi navbatda, har bir talabaning istalgan joyda va istalgan vaqtda tarkibdan erkin foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgan barcha o'quv axborotlarining bir joyda mavjudligidir [127; 130, 131]. Talabaning individual sur'atda o'rganishi, "tanish" mavzularni o'tkazib yuborishi yoki o'quv materialini qayta ko'rish orqali qiyinchiliklarga sabab bo'lgan savollarga qaytishi muhim ahamiyatga ega. O'quv modulini doimo yangilab borish mumkin, bu esa egallanishi kutilayotgan sohaning eng oxirgi natijalari bilan hamohang bo'lib turish, zamonaviy va qimmatli ma'lumotlarni yetkazish imkonini yaratadi; pedagog o'quv fanining ayrim qismlarini o'z tajribalariga muvofiq qisman o'zgartirish imkoniyatiga ega bo'ladi [127, 131].

Bugungi kunda talabalar va o'qituvchilar o'rtasidagi interaktiv o'zaro hamkorlik Moodle asosida internet-trafik orqali yaratilgan axborot-ta'lim muhitida va har qanday zamonaviy texnik uskunalar (kompyuter, planshet, smartfon) ning mavjudligida ro'y bermoqda. Bundan tashqari, ta'lim jarayonida tabiiy va zarur munozaralar bilan bog'liq doimiy va tezkor aloqa va qo'shimcha shaxsiy izohlarga muhtoj materialni tahlil qilishda o'qituvchi yordamida Skype, ZOOM, mobil ilovalar, elektron pochta, ijtimoiy tarmoq suhbatlari va WhatsApp messenjeri orqali amalga oshiriladi.

Aynan o'qitishning innovatsion usullari kelajakda bitiruvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashga va bunday ko'nikmalarni egallashga yordam beradi. Ular talabalarda kognitiv qiziqishni rivojlantirishga hissa qo'shadi, o'rganilgan materialni tizimlashtirish va umumlashtirishni, bahs va muhokama qilishni o'rgatadi. Olingan bilimlarni tushunish va qayta ishlash orqali talabalar uni amalda qo'llash ko'nikmalariga ega bo'ladilar, muloqot tajribasini oshiradilar. Albatta, ta'lim berishning zamonaviy usullari an'anaviylarga ko'ra bir qator ustunliklarga ega, aynan ta'limning innovatsion usullari: aqliy qobiliyatning rivojlanishidagi roli beqiyos, talabalarni bilim darajasini oshirishga va mustaqil qaror qabul qilishga o'rgatadi. Ta'lim sohasidagi innovatsiyalar – bu jamiyat va mehnat bozori talabi asosida ajralib turuvchi, ta'lim xizmatlari ko'rinishida natijalarni egallash uchun

yangi bilimlar, usullar, yondashuvlar, texnologiyalardan foydalanish bo'lib hisoblanadi [106, 124; 381, 141; 98].

Innovatsion usullarga aniq javobga ega bo'lmagan ba'zi muammolarni hal qilish ko'nikmalarini shakllantirish, material ustida mustaqil ishlash va olingan bilimlarni amalda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishni ta'minlovchi "Muammoli o'qitish" deb ataluvchi usulni misol qilish mumkin. Shuningdek, o'qitishning innovatsion usullariga interfaol ta'limni ham kiritish mumkin [111; 211]. Bu o'rganilayotgan materialni faol va chuqur o'zlashtirish, murakkab muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgandir [106].

Hozirda deyarli barcha o'quv muassasalarida o'qituvchilar odatiy ma'ruzalar o'rniga simulyatsiya va rolli o'yinlar, munozaralar, real hayotga iloji boricha yaqinlashtirilgan vaziyatlarni modellashtirish kabi interfaol usullardan foydalanmoqdalar. Shuningdek, vebinarlar o'tkazilib, ular yordamida talabalar mutaxassislar, korxona rahbarlari va ularning bo'limlari rahbarlari, yetakchi olimlar va boshqalar bilan muloqot qilishlari mumkin [94; 145, 106].

Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan yana bir zamonaviy o'qitish uslubi hamkorlik orqali o'rganishdir. Bu usul kichik guruhlarda ishlashda samarali bo'lib hisoblanadi. Ushbu usul o'z oldiga o'quv materialini samarali o'zlashtirish, turli nuqtayi nazarlarni idrok etish, hamkorlikda ishlash va birgalikdagi ish jarayonida muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirish vazifasini qo'yadi [94; 145, 106].

Ijodiy, innovatsion fikrlash o'z ishini chuqur o'zlashtirgan mutaxassisning asosiy sifati hisoblanib, tashkilot va uning resurslarini boshqarish, turli loyihalar bo'yicha jamoaviy ishlarni rejalashtirish va tashkil etish, shuningdek, xodimlarni rag'batlantirish va nazorat funksiyalarini bajarishda muhim o'rin egallaydi. Bunday fikrlash usuli yangi innovatsion yondashuvlar va yechimlarni yaratishga imkon beradi, bu ayniqsa raqobat bozorida muvaffaqiyatli bo'lishni istagan tashkilot uchun juda muhimdir [40, 106].

Zamonaviy mutaxassisning moslashuvchanligi va harakatchanligi unga tashqi raqobat muhitidagi doimiy o'zgarishlarga o'z vaqtida (yoki muddatidan oldin) javob berishga imkon beradi [94; 87, 106].

Tadqiqot muammosi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar sharoitida talabalar, ya'ni bo'lajak mutaxassislar oldiga yanada muhim talablar qo'yadi. Zamonaviy sharoitda kasb-hunar egallash, kasbiy faoliyatda yetuklikka erishishga oid axborotlar ko'lamining ortganligi, shaxsiy ehtiyojlarning o'sib borayotganligi, jamiyat hayotida turli yangidan yangi sohalarining paydo bo'layotganligi, kasbiy faoliyat sohalarining ham, insoniyatning hayotga, shu bilan birga turmush tarziga bo'lgan qarashlarining ham zamon bilan hamnafas o'zgarayotganligi bilan tavsiflanadi.

Iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotning zamonaviy bosqichida rivojlangan jahon hamjamiyatlarining ilg'or samarali tajribasi va milliy-ma'naviy qadriyatlarga asoslangan uzluksiz ta'lim tizimida barcha darajadagi ta'lim jamiyat oldida turgan asosiy maqsad va vazifalardan biri yangilanishdir, ta'lim jarayonini modernizatsiya qilish [2].

Bugungi kunda tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida nafaqat ma'lum ixtisoslik haqidagi nazariy bilimlarni o'rganib o'zlashtirgan, balki teran xulq, ma'naviy fazilatlariga ega bo'lgan, xalq bilan muloqotga kirisha oladigan, o'z ishini, kasbiy faoliyatini puxta biladigan mohir mutaxassislar tayyorlashga katta e'tibor berish zarurdir [2].

Zamonaviy mutaxassis o'z kasbining mohir egasi sifatida o'z burchiga sodiq, shaxsiy manfaatidan ko'ra xalq manfaatini ustun qo'yib, zimmasidagi vazifani bajaradigan ma'lum shaxsiy hamda kasbiy kompetentlikka ega shaxs bo'lishi lozim [95; 27]. Bu borada mutaxassis-pedagoglardan o'zini-o'zi tarbiyalash ko'nikmalarini namoyon qilishlari hamda kasbiy yetuklikka erishishlari uchun tinmay mehnat qilishlari, zamonaviy yangiliklardan xabardor bo'lishlari, jismoniy, ruhiy va kasbiy jihatdan yuqori tayyorgarlikka ega bo'lishlari talab etiladi [54; 74, 94, 95].

Ta'limdagi innovatsiya bu ta'lim texnologiyalarini takomillashtirish jarayoni, bir qator metodlar, uslublar va o'quv materiallarini tushunishdir. Hozirgi kunda innovatsion ta'lim faoliyati bolalarga ta'lim beradigan har bir muassasada ta'lim faoliyatining muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Va bu tasodif emas. Darhaqiqat, aynan innovatsion faoliyat nafaqat ta'lim xizmatlari bozorida ta'lim muassasasining raqobatdoshligi uchun asos yaratadi, balki o'qituvchining kasbiy rivojlanish yo'nalishini belgilaydi. Uning ijodiy ishlari talabalarning shaxsiy o'sishiga katta hissa qo'shadi. Shuning uchun innovatsiyalar o'qituvchilarning ilmiy-uslubiy ishlari va talabalarning o'quv tadqiqot faoliyati bilan uzviy bog'liqdir. Pedagogik jarayonda innovatsion o'qitish usullari o'qituvchilar va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyatida o'qitish va tarbiyalashning maqsadlari, usullari, mazmuni va shakllariga yangiliklarni kiritishni nazarda tutadi. Ushbu yangiliklar maxsus ishlab chiqilishi yoki ta'lim tashabbusi doirasida qayta amalga oshirilishi mumkin [153; 374].

“Integratsiya” atamasi lotin tilidan olingan bo‘lib *qo‘shilish, birlashish* ma’nolarini bildiradi. Ma’lumotlarni integratsiyalash har xil manbalarda mavjud bo‘lgan materiallarni ma’lum maqsad asosida birlashtirib taqdim etishni nazarda tutadi [74; 435].

Integratsiya – bu faqat o'quv muammolarini hal qilish va amalga oshirish, o'quv materialining maxsus kombinatsiyasi bo'libgina qolmay, balki ta'lim jarayonini tashkillashtirish usuli hisoblanib, asosiy narsani ajratib olish, o'quv materialini turli yo'nalishlar orqali tahlil qilish, ma'lum bo'lganlar bilan yangi aspektda operatsiyalarni bajarishni o'z ichiga oladi. Integratsiya darsni hamkorlik yo'nalishiga yo'naltirishga imkon beradi, bu yerda fikrlar bir-biriga qarama-qarshi bo'lishi mumkin, ammo har qanday fikr hamma tomonidan hurmat qilinadi. Bu eng qimmatli fazilatlaridan: birovni tinglash, uning dalillarini o'rganish, birovning nuqtayi nazarini o'z nuqtayi nazari bilan solishtirish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Pedagogikada integratsiya uzluksiz bog'langan, birlashgan, yaxlitlikni yaratish jarayoni va natijasi hisoblanadi. O'quv mashg'ulotlarini o'tkazishda u

o'rganilayotgan turli fanlarning aniq kursi (predmeti, bo'limi, dasturi) elementlarini birlashtirishga, turli fanlarning metodlari va ilmiy tushuntirishlarini fan asoslarini umumlashtiruvchi va ularni o'zida mujassam etgan umumiy ilmiy tushunchalar va o'qitish usullariga birlashtirishga asoslanadi [55; 48].

Ta'limga integratsiya nuqtayi nazaridan yondashish deganda ta'lim beruvchi va talaba orasidagi o'zaro munosabatlarning aniq bir turi tushunilishi kerak, bunda ta'lim beruvchi turli fanlar kurslaridan olingan bilimlarni umumlashtirish maqsadida ta'lim oluvchi faoliyatini tashkil etadi va boshqaradi, shu bilan birga bu kurslarning fanlararo aloqalari, o'z navbatida, amalga oshiriladi [134; 1897].

O'qituvchi, birinchi navbatda, maqsadni aniq belgilashi, uni samarali tushunish uchun mos usullarni tanlashi, o'quv jarayonini tashkil etish uchun shakl va zarur materiallarni aniqlashi, o'rganilayotgan materialni takrorlashi, fanlararo aloqaga asoslangan hal qilish malakalari, muammoni hal qilish uchun natijalarni oldindan aniqlashi kerak [80; 121].

Tibbiyot oliy ta'limi mazmuni bo'lajak mutaxassislarni har tomonlama rivojlanishga, ularda turlicha fikrlash shakllarini rivojlantirishga asoslangan bo'ladi. Bilish jarayonida o'zaro chambarchas bog'liq bo'lgan tafakkurni rivojlantirish juda muhimdir. Ta'sirchanlik, tasavvur, notiqlik va fikrlash qobiliyatlarini uyg'otadigan hissiy yo'nalishni rivojlantirish uchun bularning barchasi har bir o'quv predmetini o'zlashtirishga olib keladi, bu esa o'quvchining materialni o'qish, shuningdek, uni yodlash qobiliyatiga asos yaratadi [169].


Talabalar dunyoqarashini rivojlantirishda fanlararo integratsiya, ya'ni uzviylikni ta'minlash hozirgi paytda eng dolzarb masalalardan hisoblanadi. Chunki fanlar orasidagi aloqadorlik ta'minlangan bo'lsa, ta'lim beruvchi talabalarda o'zining o'tadigan predmetiga bo'lgan e'tiborini oshiribgina qolmay, ushbu fanni chuqur o'zlashtirilishiga hissa qo'shgan bo'ladi. Fanlararo integrallashuvni kompleks tarzda amalga oshirish natijasida ta'lim-tarbiya jarayonining aloqadorligi ma'lum darajada oshadi, talabalarda tafakkur ko'nikmalari rivojlanadi. Shuningdek, o'qituvchilarning o'qitiladigan fanlar bo'yicha bilimlari va

qiziqishlarini rivojlantirish muhim tarkibiy qismlardan biri hisoblanadi [95; 54, 120, 162].

Yuqori samaradorlikka ega ta'lim texnologiyalarining yaratilishi, bir tomondan, o'quv materialining samaradorligini oshirish imkonini bersa, ikkinchi tomondan, talabalarning ijodiy rivojlanishiga yo'l-yo'riq ko'rsatish maqsadida pedagoglar shaxsiy o'sish masalalariga ko'proq e'tibor qaratishadi.

Shunday qilib, ta'lim texnologiyasi: o'qituvchilarning mehnat unumdorligini oshiradi; har bir o'quvchining ta'lim samaradorligini monitoring qilish va qaytar aloqa tizimi orqali individual qobiliyati va temperamentiga mos ravishda o'qitish imkonini berishini ta'minlaydi; o'qituvchilarning asosiy o'quv funksiyalarini bajarib, o'qituvchilarga vaqtni tejashga yordam beradi, buning natijasida u talabalarning individual rivojlanishi masalalariga ko'proq e'tibor berishi mumkin, chunki har qanday texnologiya maqsadi uchun obyektiv usullardan foydalanish juda aniq belgilangan bo'lib, subyektiv omilning nazoratdagi rolini kamaytirishga imkon beradi; ta'lim texnologiyalari o'qituvchining malakasi ta'lim natijalariga bog'liqligini kamaytirishga imkon beradi, bu barcha ta'lim muassasalarida talabalarning akademik ko'nikmalarini tenglashtirish uchun imkoniyatlar ochadi; texnologiya o'quv dasturlari va kasb-ta'limining uzluksizligi muammosini hal qilish uchun sharoit yaratadi. Shu asosda ularda quyidagi kreativ sifatlarni (1.1-rasmga qarang) rivojlantirish kerak [148; 287].

Barcha oliy ta'lim muassasalarida bo'lgani kabi tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida ham bo'lajak mutaxassislarni kasbiy tayyorlash jarayonida ularning ishlashi va ta'lim olishini oldindan belgilab beruvchi integratsiya hodisasi sabab bo'lgan sifatiy o'zgarishlar yuz bermoqda. Integratsiyalash pedagogikaning muhim tarkibiy qismlaridan hisoblanadi. Bunda u ishlab chiqarish faoliyati barcha jarayonlarining bo'linmas qismi bo'lib, inson aqliy faoliyati mahsuli – individual fikrdan tortib yaxlit bir predmetgacha bo'lgan, tadrijiy rivojlanishning kompleksi sifatida gavydalanadi.



1.1-rasm. Talabalarda shakllangan kreativlik sifatlari

Shu nuqtayi nazardan, integratsiya ta'limning ham bilim olish, ham rivojlanish tomonlariga tegishli bo'lib hisoblanadi. Bundan kelib chiqqan holda, tibbiyot oliy o'quv yurtlarida integratsiyaviy va ijodiy ta'lim imkoniyatlarini joriy etish orqali ta'lim samaradorligi va sifatini oshirishni eng muhim dolzarb pedagogik muammolardan biri deb hisoblash mumkin [105, 136; 188].

1.2. Bo'lajak tibbiyot xodimlarini integrativ-kreativ yondashuv asosida o'qitishning mazmun mohiyati

Integrasiya (lot. integrum – butun; lot. integratio – qayta tiklash, to'ldirish) umuman olganda, bir-biridan farq qiluvchi tarkibiy qismlarning birlashishi, o'zaro kirib borishini bildiradi. Har qanday elementlarni (qismlarni) bir butunga birlashtirish. O'zaro yaqinlashish va munosabatlarni shakllantirish jarayoni hisoblanadi [146; 74].

Fanlararo aloqalar har xil turdagi tasvirlarni o'rganishda shakllanadi. Ular ta'lim mazmunini bitta akademik mavzuga ham ma'lum bir ta'lim turini belgilaydigan ta'lim subyektlariga nisbatan qurish uchun manba bo'lib xizmat qiladi [45]. Integratsiya natijasida integratsiyalashuv bo'yicha o'quv kursi


o'tkaziladi. Shuning bilan ular nafaqat manbani, balki ta'lim mazmunini shakllantirish omiliga aylanadi. Lekin jamiyat hayotining axborot bilan to'yinganligi ortib borishi, bilimning ilmiy yadrosi kengayib borishi maxsus jarayonda fanlararo aloqalar bog'liqligi tartibining, boshqaruvchanlikning, ta'lim yaxlitligining o'lchovi – yaxlit ta'lim tizimlari va ular elementlarining integratsiyasi deb hisoblaydi [43; 243, 164].

Tibbiyot oliy ta'limidagi kreativ-integrativ jarayonlari orasida quyidagi parametrlar ajratib ko'rsatiladi: - tibbiyot fani maxsus fanlarining o'zaro bog'liqligi va ta'siri, tibbiyot oliy o'quv yurti talabalarining maxsus ijodiy bilimlarini to'ldirishga yordam beradi; - mazkur fanlarning ijodiy-nazariy va amaliy o'zaro ta'siri; - tibbiy ta'lim tizimida bo'lajak shifokorlarning ijodiy tajribasi va maxsus ilmiy ishlanmalarini o'zaro almashishga asoslangan yaxlit kasbiy va ta'lim makonini yaratish; - xususiy tadqiqotlar asosida umumiy tizimlarni ajratish sifatida talabalar, aspirantlar va rezidentlarning so'nggi ilmiy ijodiy ishlanmalarini muvofiqlashtirish. Boshqa bir holatda unda ilmiy tadqiqotlar, ma'lumotni talqin qilish, uni qo'llash va boyitish usullari mavjud. Bu oliy o'quv yurti muhitida quyidagilarni birlashtirgan yaxlit ta'lim maydonini yaratishni talab qiladi [43; 243, 73, 137; 371] (1.2-rasmga qarang).

Ilmiy bilimlarning funksional imkoniyatlariga yondashuvlarning ko'pligi fikrlash tarzini talqin qilishni aks ettiradi. Tafakkur kontekstida – bu ma'lum fenomen (hodisa)lar orasidagi aloqalarni o'rnatish uchun bajariladigan harakatlar tizimidir. Bunday harakatlar nazariy va amaliy muammolarni hal etishga qaratilgan bo'lishi mumkin. Sintezni konkretlashtirish sifatida tahlil qilish va umumlashtirish – bu har qanday fikrlashga hamroh bo'ladigan sinxron aqliy jarayondir. Muayyan turdagi vazifalarni belgilaydigan bilish faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, ko'rgazmali-majoziy, og'zaki-mantiqiy (nazariy) va amaliy fikrlash farqlanadi. Ularning ustunligi, talaba tomonidan tushunilgan ilmiy bilimlar sohasiga bog'liq bo'lib, ikki yo'nalishda xarakterlanadi [95; 47, 164].

Insonning kreativ fikrlash turlarini o'rganish uchun, birinchi navbatda, faoliyatni tashkil qilish kerak, jarayon yoki obyektни tartibli, tizimli va maqsadli

o'rganish bilimlarni to'plash va o'zlashtirishda namoyon bo'ladi.



1.2-rasm. Oliy o'quv yurtida talab qilinuvchi shart-sharoitlar

Shu bilan birga, tafakkur ilmiy bilimlar tizimida yo'nalishni ta'minlash vazifasini bajaradi. Ushbu faoliyat, konseptual shakldagi yo'nalish bilan tartibga solinadi, bu subyekt uchun yangi voqelikni ochadi, buning natijasida "aqliy vazifalarni" hal qilish mumkin bo'ladi [78; 176].

Tasviriyan mantiqiyga, mantiqiydan amaliyga, amaliydan tasviriyga va yana mantiqiy fikrlashga o'tishni ta'minlash umumta'lim pedagogik tizimlarga xosdir. Zamonaviy tibbiyot o'quv faoliyatida ta'lim mazmunini bosqichma-bosqich rivojlantirish va kognitiv muammolarni hal qilish, oliy o'quv yurtlari talabalarining kreativ tafakkurini rivojlantirish orqali amalga oshiriladi. Ta'lim jarayoni innovatsion va an'anaviy texnologik turlarga bo'ysunadigan aqliy rivojlanishning ma'lum normativ: vizual-majoziy, vizual-harakatli, evristik, konsentratsiyali, kompyuterli, dasturlashtirilgan modellarga yo'naltirilgan. Ularning har biri bilimlarni tizimli o'zlashtirishni nazarda tutadi [71; 63, 164].

Tibbiyot oliy ta'lim muassasasida talabaning kreativ fikrlashi, bilish obyektiga tizimli nostandart munosabatda bo'lishi, kognitiv kreativ muammolarni

hal etish ko'nikmalariga ega bo'lishida namoyon bo'ladi [136; 188]. Odatda, u sodda yechim izlash uchun beimkon bo'lgan va kreativ fikrlashga xos mustaqil, nostandart yondashishni talab etuvchi aloqalar va munosabatlar kompleksini qamrab oladi. Maxsus tashkil etilgan mashg'ulot yordamida uni har qanday fikrlash bilan bog'lash va bir turdan ikkinchisiga o'tishni sifat jihatdan aniqlash yoki unga qo'shilish mumkin. Ta'lim aniq qobiliyatga ega bo'lgan yoki kelajakda kasb tanlashga turtki beradigan bo'lishi kerak [66; 245, 164]. Shunday qilib, kasbiy tafakkurni shakllantirish amalga oshiriladi. Bu bo'lajak yoki amalda ishlab turgan mutaxassisga professional vazifalarni yuqori mahorat darajasida bajarishga imkon beruvchi fikrlash (1.3-rasmga qarang) qobiliyati bo'lib hisoblanadi [73, 164].



1.3-rasm. Kasbiy tafakkur xususiyatlari

V.T.Kudryavsev o'z izlanishlarida kreativ fikrlash ma'lum darajada nazariy ekanligini aniqladi, chunki u obyektning yangi muhim, muntazam va zarur xususiyatlarni kashf etishga, ularni o'zgartirishning umumiy usullarini qurishga qaratilgan [53; 82]. Ushbu tushuncha tibbiyot mutaxassisining kasbiy tafakkuri bilan bevosita bog'liq bo'lib, u jarayonlarda izchil aloqalar o'rnatishga asoslangan: sabab va mohiyat, maxsus talqin va harakat rejasini talab qiluvchi yoki I.Y.Lerner ta'biri bilan aytganda, "Bilimlar va faoliyat usullarining maxsus tuzilmasi" hisoblanib, "ularni tashkil qilish usullari kompleksi haqidagi tizimlilikni nazarda tutadi" [56; 113, 164].

Tizimlilik xususiyat sifatida fikrlashning alohida rivojlangan shakliga xosdir. A.N.Averyanovning so'zlariga ko'ra, fikrlashning bunday shakli obyektiv voqelikning izchilligini aks ettiradi va shu bilan birga unga mohiyatan mos

keladigan, lekin yangi (yangi, eskisidan farq qiluvchi, ya'ni original) aloqalar, funksiyalar va elementlar bilan ajralib turadigan dialektik tizimni hosil qiladi [23; 143, 54; 98].

Fikrlash, faoliyat va ijodkorlikning o'zaro bog'liq muammolari nuqtayi nazaridan tadqiqotchilarning birlashgan qarashlari (M.S.Bernshteyn, D.B.Bogoyavlenskaya, Z.I.Kalmikova, B.M.Teplov va boshq.) ular rivojlanishining alohida darajasi sifatida, kreativ fikrlashning umumiy xususiyatlarini: dialektikani, o'ziga xoslikni, izchillikni, bog'liqlikni, ijodkorlikni, moslashuvchanlikni, ko'nikma va bilimlarni o'zlashtirishni, ishonchlilikni, shuningdek, obyekt yoki uning qismlarining odatiy bo'lmagan vazifalarini topish qobiliyatini aniqlashga imkon berdi [54; 97, 164].

Shunga qarab, faoliyat ayni shu parametrlar bilan murakkablashadi. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, kreativ fikrlash va kreativ faoliyat xususiyatlari bir xil. I.Y. Lerner mutaxassislar kreativ faoliyatining xususiyatlarini rasmda ko'rsatilgandek tasniflagan [57; 144] (1.4-rasmga qarang).

KREATIV FAOLIYATINING XUSUSIYATLARI

1) Yangi vaziyatga yaqin va uzoq, tizim ichi va tizimlararo bilim va ko'nikmalarni mustaqil ravishda amalga oshirish

2) An'anaviy vaziyatda yangi muammoni ko'rish

3) Ob'yekt tuzilishini ko'rish

4) Ob'yektning an'anaviy funksiyasidan farqli ravishda yangi funksiyasini ko'rish;

5) Muammoni hal qilishda muqobillarni ko'rib chiqish;


6) Yangi muammoni hal qilishda ilgari ma'lum bo'lgan faoliyat usullarini birlashtirish va o'zgartirish

7) Ma'lum bo'lgan hamma narsadan voz kechish va tubdan yangi yondashuvni yaratish (tushuntirish)

1.4-rasm. Mutaxassisning kreativ faoliyati xususiyatlari

Ilmiy bilimlarning tahlili, insoniyat oldida turgan murakkab muammolar sonining ko'payishi bilan bevosita aloqada bo'lib, ularni faqat fanning turli

sohalaridagi bilimlarni jalb qilish orqali hal qilish mumkin [133; 106, 164] (1.5-rasmga qarang).



1.5-rasm. Sog'liqqa yo'naltirilgan konsepsiya (sog'liq ijtimoiy boylik sifatiga qaraladi)

Tibbiyot mutaxassisi mamlakat hayotini ta'minlashning asosiy muammolari, shu jumladan, inson resurslari bilan shug'ullanadi. Bu esa undan-da yuqori darajadagi muammoli professionallikni ta'minlovchi tabiiy-ilmiy fikrlashni talab qiladi [118].

Ixtisoslashgan ijodiy va kasbiy fazilatlar qatoriga biz tibbiyot mutaxassisining tadqiqotchilik fazilatlarini ham kiritamiz. Tibbiyot oliy o'quv yurti bitiruvchisining ijtimoiy kutilayotgan ijodiy fazilatlarini ro'yxatida ko'rsatilganidek, tibbiyot mutaxassisi, birinchi navbatda, madaniyat subyekti bo'lishi kerak, madaniy ijod nuqtayi nazaridan umuminsoniy qadriyatlarni ro'yobga chiqarish va

axloqiy jihatdan baholashga qodir. Bunga ta'limdagi umumiy madaniy komponent yordam beradi, bu ta'limni jamiyatda madaniy ijodkorlikni tarjima qilish mexanizmi sifatida ifodalaydi [154; 55].

Integrativ-kreativ fikrlash uslubini ko'rib chiqishdan oldin ushbu semantik konsepsiyaga kiritilgan "integratsiya", "ijodkorlik", "fikrlash uslubi" toifalarini qisqacha ko'rib chiqish lozim bo'ladi. Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda integrativlik toifasi rus olimi B.S.Merlin tomonidan jiddiy o'rganilgan bo'lib, "har xil iyerarxik darajadagi individual xususiyatlar va turli qonunlarga bo'ysunish o'rtasidagi xilma-xil aloqalarni o'rnatish, tabiiyki, ajralmas individuallikni tavsiflovchi bu xususiyatlarning yaxlit tizimi bor degan fikrga olib keladi [67; 134, 68; 97].

Shubhasiz, insonda cheksiz xususiyat va o'ziga xoslik mavjuddir, afsuski, bunday cheksizlik maxsus o'rganish obyekti bo'la olmaydi. Individuallikni o'rganish yaxlit bo'lishi uchun cheklangan miqdordagi, lekin har xil iyerarxik darajalar bilan bog'liq bo'lgan individual xususiyatlar o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish kifoya. Bunda har xil iyerarxik darajalarni, ehtimol, har xil qonuniyat bilan belgilanadigan darajalar deb tushunish kerak" [67; 28].

Tadqiqotning o'zi haqida gapirganda, olim " ... tadqiqot ... bo'lishi mumkin Agar bu izchillik va tizimli yondashuv prinsipi asosida amalga oshirilsa" [o'sha yerda, 29-bet], bu ayni tadqiqot uchun juda yaqin bo'ladi. Lekin bizning alohida qiziqishimiz B.C.Merlinning inson individualligi bilan integrallashuvning amaliy identifikatsiyasi hisoblanadi. Bu borada olim quyidagicha yozadi: "Psixologiya kontekstida tushunishimiz nuqtayi nazaridan, shaxsning integral (yaxlit) xarakteristikasi uning individualligi belgisidir" [67; 30, 169].


V.Okun integratsiyani biroz boshqacha nuqtayi nazardan ko'rib chiqadi. Uning fikricha, talabalarga ham bilim olish, ham bu bilimlarni o'z faoliyatida ishlatish ko'nikmalarini beradigan nazariya kerak. Bunday nazariyaning asosi bilish va faoliyat o'rtasidagi integratsion bog'liqlik to'g'risidagi nizom bo'lishi kerak [76; 84].

"Ijodkorlik" toifasini ko'rib chiqish uchun bitta yoki ikkita tushuncha yoki tadqiqotni tanlash qiyin. Bu tushuncha chet elda XIX asrning 1-yarmidan, mahalliy

pedagogika va ijodkorlik psixologiyasida esa – XX asrning 60-yillaridan o‘rganila boshlangan va rivojlangan [169, 171].

Tabiiyki, bunday katta vaqt va makon oralig‘i turli xil qarashlar va nazariyalarni ishlab chiqish, tasvirlab berish imkonini berdi. Ko‘pincha, tadqiqotchilar bitta semantik asosga tayanib, uning har xil sifatlarini hisobga oladi. Shaxsning shaxsiy xususiyati, ko‘plab ilmiy yo‘nalishlarda kreativlik (ijodkorlik) umumiy qobiliyatlar sifatida belgilanadi va u tavsiflovchi xususiyatlar bilan birlashtiriladi, tavsif xususiyatlari va umumiy qobiliyatlari bilan bir qatarga qo‘yiladi, ammo har xil yo‘nalishlarda tilga olinadi: XX asrning 30–40-yillarida kreativ kuch yoki qobiliyat sifatida; 50-yillarning o‘rtalarida – yaratish kuchi sifatida; 70-yillarning boshidan – yangi munosabatlarni idrok etish va an‘anaviy tafakkur namunalaridan chetlashish qobiliyati sifatida talqin etilgan. Ko‘pgina tadqiqotlarda bu yondashuvlarni birlashtirish yoki birlashtirishga urinishlar borligi kuzatiladi [168; 46, 171].

kompetensiyalarni nazorat qilish uchun foydalaniladigan nostandart test topshiriqlarining turlari va ularning murakkablik darajalari o'z aksini topgan (2.1-jadvalga qarang).

O'quv materiallarini talabalarga taqdim etishda savolning "Agarda ...?" deb qo'yilishi topshiriqlarni bajarish jarayonida ularning ham obyektiv, ham subyektiv fikrlash ko'nikmalarini samarali o'zlashtirishlarini ta'minlaydi. Ken Robinson (2011) ta'kidlaganidek, kreativlik talabalarda "nafaqat yangi g'oyalarni ilgari surishini taqozo etishi, balki o'quv masalalari bo'yicha qarorlar qabul qilish, tahlil etish ko'nikmalarini ham shakllantira olishi lozim.

Kreativlik jarayoni boshlang'ich g'oyalarni ishlab chiqish, ularni tadqiq qilish va tahlil etish, zarur bo'lsa ulardan voz kechishni ham o'z ichiga oladi. Ayni o'rinda shuni ham aytib o'tish joizki, o'quv jarayoniga nisbatan kreativ yondashuv bilim olish, o'quv predmeti asoslarini o'rganishga nisbatan qiziqishi pasaygan talabalar bilan ishlash uchungina bo'lmasdan, balki hamma o'quvchilar bilan jonli, qiziqarli, jo'shqin muloqotga kirishish, ularni faollikka undash uchun qo'llaniladi.



2.3-rasm. Didaktik materiallar turlari

Ta'lim beruvchilar, shuningdek, ta'lim jarayoniga kreativ yondashishda nafaqat o'quv predmetlarini o'rganishda yuksak marralarga erishayotgan, ijodiy

fikrlashda yaxshi natijalarni qayd etayotgan talabalarga, balki yanada ko‘proq e‘tiborni talab etadigan, kreativ fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lmagan talabalarga ham birdek e‘tibor qaratishlari zarur.

Ta‘lim jarayonini tashkillashtirishda o‘quv materiallarining maqsadga muvofiq, g‘oyaviy mazmunga ega va sifatli tayyorlanishi muhim ahamiyatga ega. Oliy ta‘lim muassasalarida tashkil etiladigan o‘quv mashg‘ulotlari uchun uch turdagi didaktik materiallar tayyorlanadi (2.3-rasmga qarang).

Xorijiy mamalakatlarining ta‘lim tizimi amaliyotida shaxs kreativlik sifatlarini shakllantirish yoki rivojlantirishga xizmat qiladigan ko‘plab metod va strategiyalar qo‘llaniladi. Bu usul va strategiyalarning didaktik mohiyati shundan iboratki, ular ta‘lim oluvchilarni dars materiallari borasida yaxshiroq fikrlashga majburlaydi. Shuning uchun bu usul va strategiyalarni ijodkorlik sifatleri juda sust rivojlangan ta‘lim oluvchilar bilan ishlash jarayonida samarali qo‘llashning imkoni yo‘q [116, 158; 2].

Kzikszentmixayli (Csikszentmihalyi, 1996) kreativ shaxslar ikki toifaga bo‘linadi degan fikrni ilgari suradi (2.4-rasmga qarang).



2.4-rasm. Kreativ shaxs toifalanishi

Aksariyat talabalar o‘zlarini kreativ shaxs emas, deb hisoblaydi. Ularning fikricha, kreativlik xuddi ular erisha olmaydigan, faqat talantli kishilardagina namoyon bo‘luvchi xususiyat hisoblanadi. Bunday fikrlaydigan ta‘lim oluvchilar ijodkorlik sifatlariga egalik o‘z sohasining yetuk mutaxassislari (“katta K”

toifasiga mansub kishilar), san'at sohasida tahsil oluvchi yoki ushbu sohada ishlayotgan kishilardagina bo'ladi deb tushunadilar [116, 94; 106].

Talabalar kreativ shaxs bo'lish uchun ma'lum bir sohaning yetakchisigina bo'lish shart emasligini tushunib yetganlaridagina o'zlarida kreativlik sifatlarini shakllantirishga erishadilar. Shuningdek, ular o'zlariga past baho berishni bas qilib, yangi, samaradorligi yuqori g'oyalar bilan o'zlarini kashf etishlari, oliy o'quv yurtidagi dars jarayonida kundan kunga faolroq bo'lishga muvaffaq bo'ladilar, bilim olishga bo'lgan mayllari oshadi, o'zlashtirish darajalari yanada ortadi. O'zlarini baland baholay boshlab, kreativ sifatlarni namoyon etish borasida mavjud ko'rsatkichlardan ko'ra yuqori natijalarga erishishga intiladilar [116, 94; 106].


Kreativ qobiliyatni aniqlash bo'yicha, ta'lim tizimida bir qancha metodikalar mavjud, tadqiqotimizda qo'llanilgan usullar keltirilgan (2.2-jadvalga qarang).

2.2-jadval

Kreativlikni aniqlovchi testlar

Slosson testi Katta yoshlilar hamda bolalarning aqliy qobiliyatini o'lchashga xizmat qiladi	Berilayotgan barcha testlarga javoblar og'zaki tarzda olinadi. Kichik yoshli bolalarga berilayotgan topshiriqlarning ayrimlari bolalar tomonidan ayrim harakatlar (masalan, qog'oz, qalam yoki ruchkalardan foydalanish)ning bajarilishiga oiddir. Test aqliy qobiliyat darajasining o'rganilayotgan sifatlarga nisbati tarzida aniqlanadi. Bu o'rinda yuqori natija 120 va undan ortiq ko'rsatkich sanaladi
Veksler shkalasi Aqliy qobiliyatni aniqlashga imkon beruvchi individual test hisoblanadi. U ikki qismdan iborat	1) og'zaki shkala (ma'lum materialni o'zlashtirish, uning mazmunini tushunish, arifmetik topshiriqlarni bajarish, o'zaro o'xshashliklarni topish, lug'at boyligiga egalikni namoyish etish kabi beshta ko'rsatkich bo'yicha baholanadi); 2) harakat shkalasi (kubiklardan konstruksiyalar yaratish, labirintlarni topish, chizilayotgan surat (kartinalar)ni yakuniga yetkazish, tavsiya etilayotgan kod (tasvir)lar mohiyatini ochib berish ("Hayvonlarning uylari" mavzusi bo'yicha) kabi beshta holat ko'rsatkichlari bo'yicha baholanadi.


Torrens (I) testi - yozma shaklda olib borilib, quyidagi tafakkur sifatlarini aniqlashtirish uchun qo'llaniladi (2.5-rasmga qarang).



2.5-rasm. Torrens testida aniqlanuvchi xususiyatlar

Ushbu test xato ko‘rinishda tasvirlangan ko‘rinish (surat)ni to‘g‘ri shaklda tasvirlab berishga asoslanadi. Bunda tekshiriluvchidan juda yorqin ranglarda noto‘g‘ri tasvirlangan suratni boshqa varaqqa to‘g‘ri ko‘rinishda qayta tasvirlash so‘raladi.

Torrens II testi og‘zaki test bo‘lib, bolalar va kattalarning kreativlik qobiliyatini aniqlashga yordam beradi (2.6-rasmga qarang).



2.6-rasm. Torrens II testi

Pedagogikaga oid adabiyotlarda kreativ fikrlash darajasini baholovchi quyidagi metodlar ko‘rsatilgan:

1) ta'lim-tarbiya jarayonida ta'lim oluvchi shaxsi va faoliyatini bevosita o'rganish usullari (pedagogik kuzatuv, talabaning ish hujjatlari o'rganish, suhbat va h.k.);

2) kreativ tafakkurni tashxislashga asos bo'luvchi maxsus usullar (muammoli vaziyatlar, anketa, reyting, test va b.)

Mazkur usullar bilan tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalarining pedagogik bilimlari darajasini ham baholash mumkin. Bunda talabalarining individual, mustaqil ta'lim olishlari va bu natijalarni tahlil qilish maqsadga muvofiqdir [116].


2.2. Talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonini takomillashtirishning innovatsion tamoyillari

Tayaniladigan didaktik tamoyillar asosida darsdan tashqari ishlar va mashg'ulotlarda kreativ qobiliyatlarni rivojlantirishning metod, vosita, shakllarining uzviyligi va tizimli tashkil etilishi taqozo etiladi.

Talabalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish mavzusida quyidagi metodlardan foydalanish tavsiya etiladi.


Tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalarida kreativlikni rivojlantirish jarayonida bir qancha didaktik tamoyillar izohlangan (2.7-rasmga qarang), metod va vositalar keltirilgan (2.8-rasmga qarang).

Yuqumli bo'lmagan kasalliklar epidemiologiyasi - bu somatic (yuqumli bo'lmagan) kasalliklarning aholi o'rtasida, barcha mintaqalar va mamlakatlarning barcha yosh guruhlarida paydo bo'lishi va tarqalishining sabablari va sharoitlarini o'rganish, profilaktika choralarini ishlab chiqish va qo'llash qonuniyatlari bilan shug'ullanadi. Bu qonuniyatlarni o'rganish muhimligini hisobga olgan holda epidemiologik tahlil qonuniyatlariga ustuvorlik berish orqali quyidagi metodlar va innovatsion didaktik tamoyillaridan foydalanib, mashg'ulotlarni tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.



2.7-rasm. Kreativlikni rivojlantiruvchi didaktik tamoyillar

Bahs-munozara metodi – sogʻlom turmush tarzini shakllantiruvchi mavzu boʻyicha (Masalan: giyohvandlikka qarshi kurashish mavzusi yuzasidan) talabalar bilan oʻzaro bahs, fikr almashish shaklida qoʻllaniladigan taʼlim metodidir. Har qanday mavzu va muammoli vaziyatlarda oʻzida bor bilim va tajribalarga asoslanib muhokama qilinishi uchun ushbu usul qoʻllaniladi.



2.8-rasm. Kreativlikni rivojlantiruvchi metod va vositalar

Jarayonni nazorat qilish vazifasi talabalardan biriga topshirilishi yoki pedagogning o'zi bu ish bilan shug'ullanishi mumkin. Jarayonni erkin olib borish hamda har bir talabani unga jalb etishga harakat qilish kerak. Bu metodda dars olib borilayotganda talabalar orasida paydo bo'luvchi nizolarning tezda oldini olish kerak.


Bahs-munozara metodini qo'llashda amal qilinishi shart bo'lgan qoidalar mavjud bo'lib, quyidagi rasmda ko'rgazmali tasviri ko'rsatilgan (2.9-rasmga qarang).



2.9-rasm. Bahs-munozara metodi

Bahs-munozara metodining bosqichlari quyidagilardan iborat (2.10-rasmga qarang) bo'lib, tahlil natijasida qo'yilgan muammoning eng maqbul yechimi tanlanadi.

BAHS-MUNOZARA METODINING TUZILMASI



2.10-rasm. Bahs-munozara metodining tuzilmasi

“Uolt Disney” metodi. Qoʻllanilishi: usul ham individual, ham guruhda qoʻllaniladi. Guruhli qoʻllanganda talabalar uch guruhga boʻlinadi. Mashqni bajarishgacha maqsad yoki yaxshilanishi talab etilayotgan kontekst (mavzu) belgilab olinadi (2.11-rasmga qarang).

“Flipped class” metodi. Ushbu taʼlim metodining mazmuni shundan iboratki, mashgʻulotning nazariy qismini talabalar tomonidan axborot va kommunikatsiya texnologiyalar yordamida (video-, audio-maʼruzalar, interfaol materiallar va boshq.) darsgacha, yaʼni auditoriyadan tashqarida tayyorlanadi. Dars davomida asosiy vaqt muammoni hal qilish, hamkorlik, auditoriya bilan birga ishlash, bilim va koʻnikmalarni yangi vaziyatga qoʻllash, shuningdek, talabalar tomonidan yangi oʻquv materiallarini yaratishga sarflanadi (2.3-jadvalga qarang).

“Uolt Disney” metodi

Interfaol usullar	Tavsifi
“Uolt Disney” metodi kreativlik metodi hisoblanib, rolli o‘yinlar ko‘rinishida qo‘llanilib, talabalar muammoni hal qilishda uchta nuqtai nazardan yondashadilar: ijodkor, realist, kritik.	<i>Xayolparast</i> – muammoni hal qilish uchun turli xil hattoki noreal takliflarni beruvchi ijodkor, entuziast rolini o‘ynaydi. Odatda vizual tizim qo‘llaniladi, individual ishlaganda talabadan har qanday chegani olib tashlash aytiladi. Uning obrazi ertakona yoki fantastic bo‘lishi mumkin. <i>Realist</i> – jarayonda pragmatik, hushyor pozitsiyada bo‘lib, muammoni hal qilishda ishni rejalashtirish va qanday yo‘llarni bosib o‘tishni aytadi. Realist orzuni amalga oshirish “mumkin bo‘lganda” qabilida ishlab, diqqatni jamlab, maqsadga yaqinlashish uchun harakatlar ketma-ketligini ishlab chiqadi. <i>Kritik</i> – g‘oyani qiymatini baholaydi, taklif etilgan g‘oyalardagi xatoliklarni aniqlab, oldingi taklif qilingan g‘oyalarning zaif tomonlarini ko‘rsatadi. Disney metodida jarayonni kritik baholashda muammolarni chetlash, sifat kafolati turli kriteriylarning mantiqiy qo‘llanilishi hisobidan ta’minlaniladi.
“Flipped class” metodi ta’lim ssenariysi bo‘lib, darsning nazariy qismi talabalar tomonidan darsgacha ya’ni, uyda tayyorlaniladi	O‘quv material bilan ishlashda faol pozitsiyada bo‘ladi Qulay vaqt va qulay tempda ishlash imkoniyati O‘quv materialiga takroran murojaat qilish imkoniyati Pedagog bilan qaytar aloqada bo‘lish O‘z- o‘zini tekshirish va refleksiya Darsga talabalar shu kundagi mavzuga tayyor bo‘lib kelishadi. Dars talabalarning uyda tayyorlab kelgan bilimlarini muhokama qilish bilan boshlanadi. Pedagog darsni tushuntirish uchun sarflanadigan 15-20 daqiqani tejaydi. U darsni mustaqil tayyolash jarayonida talabalar ko‘zdan qochirgan, qiynalayotgan ma’lumotlarni bilib oladi. Tejalgan vaqt mavzuning tushunarsiz qismni tushuntirishga sarflanadi.

Davra suhbatlari metodining qisqacha ta’rifi quyidagi rasmda ko‘rsatilgan (2.4-jadvalga qarang).

Davra suhbatı metodu

Davra suhbatı metodu aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan ta'lim oluvchilar tomonidan o'z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o'qitish metodidir. Davra suhbatı metodu qo'llanilganda, stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir ta'lim oluvchining bir-biri bilan ko'z aloqasini o'rnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbatining og'zaki va yozma shakllari mavjuddir.	Og'zaki davra suhbatida ta'lim beruvchi mavzuni boshlab beradi va ta'lim oluvchilardan ushbu savol bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini bildirishlarini so'raydi va aylana bo'ylab har bir ta'lim oluvchi o'z fikr-mulohazalarini og'zaki bayon etadi. So'zlayotgan ta'lim oluvchini barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo'lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo'lingandan so'ng muhokama qilinadi. Bu esa ta'lim oluvchilarning mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi. Yozma davra suhbatida ham stol-stullar aylana shaklida joylashtirilib, har bir ta'lim oluvchiga konvert qog'ozi beriladi. Har bir ta'lim oluvchi konvert ustiga ma'lum bir mavzu bo'yicha o'z savolini beradi va javob varaqasining biriga o'z javobini yozib, konvert ichiga solib qo'yadi. Shundan so'ng konvertni soat yo'nalishi bo'yicha yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi.
Davra suhbatı metodining bosqichlari	1. Mashg'ulot mavzusi e'lon qilinadi. 2. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarni mashg'ulotni o'tkazish tartibi bilan tanishtiradi. 3. Har bir ta'lim oluvchiga bittadan konvert va javoblar yozish uchun guruhda necha nafar ta'lim oluvchi bo'lsa, shunchadan javoblar varaqalari tarqatilib, har bir javobni yozish uchun ajratilgan vaqt belgilab qo'yiladi. Ta'lim oluvchi konvertga va javoblar varaqalariga o'z ism-sharifini yozadi. 4. Ta'lim oluvchi konvert ustiga mavzu bo'yicha o'z savolini yozadi va javoblar varaqasiga o'z javobini yozib, konvert ichiga solib qo'yadi. 5. Konvertga savol yozgan ta'lim oluvchi konvertni soat yo'nalishi bo'yicha yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi. 6. Konvertni olgan ta'lim oluvchi konvert ustidagi savolga javoblar varaqalaridan biriga javob yozadi va konvert ichiga solib qo'yadi hamda yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi. 7. Konvert davra stoli bo'ylab aylanib, yana savol yozgan ta'lim oluvchining o'ziga qaytib keladi. Savol yozgan ta'lim oluvchi konvertidagi javoblar varaqalarini baholaydi. 8. Barcha konvertlar yig'ib olinadi va tahlil qilinadi. Ushbu metod orqali ta'lim oluvchilar berilgan mavzu bo'yicha o'zlarining bilimlarini qisqa va aniq ifoda eta oladilar.

“Aqliy hujum” metodi – mavzuga taalluqli bir qancha fikrlarni dastavval tanqid qilmasdan, erkin holda ishlab chiqish jarayoni bo‘lib, metodning qo‘llanilishi ko‘p qirrali hisoblanadi (2.5-jadvalga qarang).

2.5-jadval

“Aqliy hujum” metodi

“Aqliy hujum” metodi mavzuga taalluqli ko‘p fikrlarni boshlanishida tanqid qilmasdan, erkin holda ishlab chiqish jarayoni.	“Aqliy hujum” metodining asosiy vazifasi: g‘oyalarni to‘plash uchun kichik guruhlarining kuchidan foydalanish (kichik guruhning umumiy kuchi guruh ishtirokchilarining kuchlari yig‘indisidan ko‘proqdir). Aqliy hujum muammoni yechish bilan band bo‘lgan odamlarni ko‘proq g‘oyalarni taklif etishga (ular ichida mislsiz va g‘aroyiblari ham bo‘lishi mumkin) undaydi. Ushbu strategiyaning asosiy tamoyili: qanchalik ko‘p g‘oyalar taklif etilsa, shunchalik bitta bo‘lsa ham g‘oya, to‘g‘ri bo‘lishi ehtimoli ko‘proqdir.
Aqliy hujumni unumli o‘tkazish qadamlari	1. Ishtirokchilarni erkin holda o‘tkazing. 2. G‘oyalarni yozish uchun qog‘oz tayyorlang. 3. Aqliy hujum ishtirokchilariga muammoni yetkazing. 4. Ishlash qoidalarini aniqlang: g‘oyalarni taklif qilish jarayonida ular baholanmaydi, <u>erkin fikrlash</u>; g‘oyalar qanchalik ko‘p bo‘lsa, shunchalik yaxshi; boshqalar fikrini “ushlab olib”, ularni rivojlantiring (ularni birlashtirish, o‘zgartirish va hokazo orqali yangilarini o‘ylab toping). 5. Taklif etilgan g‘oyalarni tezda qog‘ozga yozib boring. 6. Yozayotgan varag‘ingiz to‘lishi bilan uni devorga osing. 7. Yangi g‘oyalarni rag‘batlantiring va o‘zingizdan qo‘shib boring. 8. Boshqalarning g‘oyalari ustidan kulishga, tanqidiy izohlashga, kinoyalar qilishga yo‘l qo‘ymang. 9. Iloji boricha ko‘proq g‘oyalar tamom bo‘lmagunga qadar davom ettiravering. O‘quv jarayonida aqliy hujum ma’ruzalarida – yakka va juftlikda ishlab, amaliy mashg‘ulotlarda – kichik guruhlarda (4–7 kishi), to‘liq o‘quv guruhida ishlatilishi mumkin. Mashg‘ulot vaqtida aqliy hujum metodi tinglovchilarni faollashtirishga, charchoqni bartaraf etishga, barchani g‘oyalar qidirish jarayoniga jalb etishga imkoniyat beradi.

Insert metodi (2.6-jadvalga qarang) yangi ma'lumotlarni qabul qilish va bilimlarni o'zlashtirishning yengillashtirilgan usuli sifatida qo'llaniladi.

2.6-jadval

Insert metodi

Insert metodi Mazkur metod talabalarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlar o'zlashtirilishini yengillashtirish maqsadida qo'llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun xotira mashqi vazifasini ham o'taydi.	Matn bilan ishlashda tinglovchilar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi: Belgilar: 1-matn, 2-matn, 3-matn. V – tanish ma'lumot. – mazkur ma'lumotni tushunmadim, izoh kerak. + bu ma'lumot men uchun yangilik. – bu fikr yoki mazkur ma'lumotga qarshiman. Belgilangan vaqt yakunlangach, ta'lim oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo'lgan ma'lumotlar o'qituvchi tomonidan tahlil qilinib izohlanadi, ularning mohiyati to'liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg'ulot yakunlanadi.
Metodni amalga oshirish tartibi	• O'qituvchi mashg'ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan matnni tarqatma yoki taqdimot ko'rinishida tayyorlaydi; • Yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta'lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko'rinishida namoyish etiladi; • Ta'lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o'z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar.

“FSMU” metodi dars jarayonida (2.7-jadvalga qarang) umumiydan xususiyini, butundan bo'lakni yuzaga chiqarish uchun qo'llaniladi.

“FSMU” metodi

Metodni amalga oshirish tartibi	– qatnashchilarga mavzuga oid bo‘lgan yakuniy xulosa yoki g‘oya taklif etiladi; – har bir ishtirokchiga FSMU metodining bosqichlari yozilgan qog‘ozlar tarqatiladi: ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhliy tartibda taqdimot qilinadi. Jadvalni to‘ldiring. Savol. Tibbiyot oliy ta‘lim muassasalarida o‘quv iarbitya mashg‘ulotlarini tashkil etish yo‘llari va vositalari (F) Fikringizni bayon eting (S) Fikringiz bayoniga sabab ko‘rsating (M) Ko‘rsatgan sababingizni asoslovchi misol keltiring (U) Fikringizni umumlashtirish.
“FSMU” metodi Mazkur metod ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o‘zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi	F • fikringizni bayon eting. S • fikringizni bayoniga sabab ko‘rsating. M • ko‘rsatgan sababingizni isbotlab misol keltiring. U • fikringizni umumlashtiring. Mazkur metoddan ma‘ruza mashg‘ulotlarida, mustahkamlashda, o‘tilgan mavzuni so‘rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg‘ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.


VENN diagrammasi metodining ta‘rifi va qo‘llanilishi quyidagi jadvalda ko‘rsatilgan (2.8-jadvalga qarang).

VENN diagramma

VENN diagrammasi metodi Bu metod grafik tasvir orqali o‘qitishni tashkil etish shakli bo‘lib, u ikkita o‘zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi.	Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavvurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko‘rib chiqish, ularning umumiy va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi. Mazkur metodlar asosida talabalarning bilish faoliyatini aniqlash maqsadida turli xil didaktik topshiriqlar tavsiya etiladi.
--	---

Mazkur topshiriqlar	– O‘rtacha qiyin (produktiv) (II) - talabalardan ob‘yektlarni tahlil qilish, sintezlash, taqqoslash, bir necha qonun va qonuniyatlarni bir vaqtda qo‘llab, umumlashtirish orqali xulosa yasashni talab qiluvchi daraja; – Qiyin (qisman-izlanishli) (III) - talabalar tomonidan avval o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni yangi kutilmagan vaziyatlarda qo‘llash, ob‘yektlarni tahlil qilish, sintezlash, qiyosiy taqqoslash, qonun va qonuniyatlarni qo‘llab, umumlashtirish orqali xulosa yasashni talab qiluvchi daraja; – Eng qiyin (kreativ) (IV) - talabalar tomonidan avval o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalarni kutilmagan vaziyatlarda vujudga keltirgan o‘quv muammolarni hal etishda qo‘llash, tahlil, sintezlash, qiyosiy taqqoslash, umumlashtirish, xulosa yasash kabi aqliy operatsiyalarni bajarishni talab qiluvchi daraja.
-----------------------------------	--


Talabalarni o‘qitishning integrativ-kreativ imkoniyatlarini kengaytirishda **darsdan tashqari mashg‘ulotlar**dan foydalanish ham samarali natijalarga erishish imkonini beradi. Darsdan tashqari mashg‘ulotlar talabalarning nazariy mashg‘ulotlardan olgan bilim, ko‘nikma va malakalarini mustahkamlaydi, dunyoqarashini shakllantiradi. Ta’limning darsdan tashqari quyidagi shakllaridan foydalanish mumkin (2.11-rasmga qarang).



2.11-rasm. Darsdan tashqari mashg‘ulotlar mazmuni

2.3. Bo'lajak shifokorlarni o'qitishning integrativ-kreativ imkoniyatlarini rivojlantirishning takomillashtirilgan modeli

Fanlararo integratsiya asosida talabalar kreativligini rivojlantirishda ularning kasbiy bilimlari muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham oliy tibbiy ta'lim jarayonida bo'lajak mutaxassislar kreativligini rivojlantirish bosqichlari alohida ahamiyatga ega (2.12-rasmga qarang). Buning uchun bo'lajak mutaxassislar fanlararo integratsiya asosida kreativ xususiyatlarni rivojlantirishning nazariy konseptual asoslari, amaliy jihatlari, pedagogik muloqot jarayoni tarkibi, kasbiy tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan didaktik loyihlarni modellashtirishga oid bilimlar bilan qurollantirilishlari talab etiladi.



2.12-rasm. Fanlararo integratsiya asosida kreativ tafakkurni rivojlantirish tuzilmasi

Tadqiqot doirasida valeologiya, jamoat salomatligi, gigiyena, terapiya, ichki kasalliklar propedevtikasi, reabilitologiya kabi modullar mazmunida salomatlik, sogʻlomlashtirish, sogʻlom turmush tarzi kabi mavzularda takroriy maʼlumotlar va fikrlar keltirilganiga guvoh boʻldik. Shu maqsadda valeologiya fani mavzulari mazmunida yuqoridagi fanlar xususiyatlarini ifodalaydigan integrativ xarakterdagi maʼlumotlarni keltirdik hamda talabalar kreativ tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlar tizimi ishlab chiqildi.

Tahlil qilingan dasturlarda aholi va inson salomatligini saqlashga doir bir qator mavzular keltirilgan boʻlsa-da, integrativ-kreativ yondashuv asosida talabalarni oʻqitishning zamonaviy shakl, usul, metodlari, vositalari, omillari, funksiyalari hamda metodikasi yoʻnalishidagi mavzular oʻz aksini topmagan.

5510100-Kasbiy taʼlim (davolash ishi) taʼlim yoʻnalishi

VALEOLOGIYA

oʻquv fani dasturining qisqacha tavsifi

Fanning qisqacha tavsifi			
OTMning nomi va joylashgan manzili:	Buxoro davlat tibbiyot instituti	Buxoro, A.Navoiy koʻchasi, 1 https://bsmi.uz/	
Kafedra:	Jamoat salomatligi va sogʻliqni saqlashni boshqarish kafedrası	Tibbiy profilaktika, tibbiy biologiya va xalq tabobati fakulteti	
Taʼlim sohasi va yoʻnalishi:	510000-sogʻliqni saqlash	5510100 – Davolash ishi	
Fanni (kursni) olib boradigan oʻqituvchi toʻgʻrisida maʼlumot:	F.I.Sh. Sh.T.Yuldashova	e-mail:	
Dars vaqti va joyi:	-bino, -auditoriya -bino, - auditoriya	Kursning davomiyligi:	-kurs: 02.09. 2021 y-18.01.2022y

Individual grafik asosida ishlash vaqti:	payshanba va juma kunlari 15.00 dan 18.00 gacha						
Fanga ajratilgan Soatlar	Auditoriya soatlari						Mustaqil ta'lim:
	Ma'ruza:		Amaliy		seminar		
Fanning boshqa fanlar bilan integrativ bog'liqligi :	Jamoat salomatligini saqlash va boshqarish, gigiyena, terapiya, ambulator terapiya, rabilitologiya, ichki kasalliklar propedevtikasi.....						
Fanning mazmuni							
Fanning dolzarbligi va qisqacha mazmuni:	Valeologiya fanidan valeologiya modul dasturi inson salomatligining qonuniyatlari aholi va fuqarolar salomatligini saqlash, yanada yaxshilashni yo'llarini o'rgatadi. Shu bilan birga insonlar salomatligiga individual yondashish, har bir aholi ongida tibbiy faollikni rivojlantirish, shuningdek sog'lom turmush tarzini yaratish orqali kasalliklarga chalinmaslik yo'llarini aholi ongiga singdirish to'g'risidagi qonuniyatlarni o'rgatadi. Modulning maqsadi: Talabalarga aholi orasida kasallanish, aholini o'rtacha umr davomiyligini uzaytirishga qaratilgan chora tadbirlarni o'rgatishdir. Bunga sog'lom turmush tarzini yaratish, aholi ongida tibbiy faollikni oshirish, talabalarga fanning asosiy tushunchalari va kategoriyalarini o'rgatish, nazariy, amaliy, uslubiy va tashkiliy bilimlarni hosil qilishdan iborat. Modulning vazifalari: - talabalarga nazariy bilimlar, valeologiya fanini mushohada qilish usullari bilan tanishtirish; - aholi orasida sog'lom turmush tarzini shakllantirishga qaratilgan targ'ibot ishlarini amalga oshirish; - aholi o'rtasida hamshira patronaji ishlarini to'g'ri tashkil etishni o'rgatish.						
Talabalar uchun talablar	• Auditoriya mashg'ulotlariga muntazam qatnashish va darsga kechikmasdan kelish; • Mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rgan holda kelish; • Mashg'ulotlar jarayonida faol ishtirok etish; • Sillabusda ko'rsatilgan mustaqil ish vazifalarini o'z vaqtida bajarish; • Ma'lum sabablarga ko'ra qoldirilgan mashg'ulotlarni qayta						

	o'zlashtirishga faqat tibbiy ma'lumotnoma bo'lgandagina ruxsat beriladi; • Barcha turdagi nazoratlarda (joriy nazaorat, mustaqil ish nazorati, oraliq nazorat, yakuniy nazorat) muntazam ishtirok etish.
HEMIS dasturi orqali munosabatlar tartibi	Professor-o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqot Hemis dasturida yuklangan o'quv resurslari orqali ham amalga oshiriladi

Talabani fan bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichlari namunaviy mezonlari

Nº	Talabani fanni o'zlashtirish (bilim, ko'nikma va malaka) darajasi	5
a)	Xulosa va qarorlar qabul qilishi	
	Ijodiy fikrlay olishi	
	Mustaqil mushohada yuritish	
	Olgan bilimlarini amaliyotda qo'llay olishi	
	Mohiyatini tushunish	
	Bilish, aytib berish	
	Tasavvurga ega bo'lish	
b)	Mustaqil mushohada yuritish	4
	Olgan bilimlarini amaliyotda qo'llay olishi	
	Mohiyatini tushunish	
	Bilish, aytib berish	
	Tasavvurga ega bo'lish	
v)	Mohiyatini tushunish	3
	Bilish, aytib berish	
	Tasavvurga ega bo'lish	
g)	Aniq tasavvurga ega bo'lmaslik	2
	Bilmaslik	

1-MA'RUZA MASHG'ULOTI

Mavzu: Valeologiya fani va uni o'qitish predmeti sifatida. Valeologiya individual salomatlik to'g'risidagi fan

Ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi va ishlanmasi modeli	
Mashg'uliot soati: 80 min	Talaba soni 20-25
Mashg'uliot shakli	Ma'ruza mashg'uloti
Mashg'uliot rejasi:	Valeologiya faniga kirish. Fanning predmeti, maqsadi va vazifalari. Salomatlik va kasallik tushunchalari. Aholi va shaxs (jamo va individual) salomatlik darajasini o'rganish, baholash. Turmush tarzi va uning kategoriyalari. Sog'lom turmush tarzi va uni yaratishning asosiy shartlari. Tibbiy faollik va uni aholi ongida shakllantirish.
O'quv mashg'uliot maqsadi	Ta'limiy: Talabalarga Valeologiya fani va uni o'qitish predmeti sifatida. Valeologiya individual salomatlik to'g'risidagi fani haqida ma'lumot berish, Tarbiyaviy: mavzuga oid hayotiy misollar orqali talabalar ongida xalq salomatligini yaxshilash, aholining tibbiy saviyasini oshirishda o'z hissasini qo'shishga intilish, o'zi tanlagan kasbga mehr uygotish Rivojlantiruvchi: mavzuni tushuntirishda yangi adabiyotlar asosida ilmiy asoslangan dalillar orqali talabalarning zamon talabiga mos kadrlar bo'lib yetishishiga erishish.
Ta'lim berish usuli	Interfaol usul (ikki sahifali kundalik), kichik guruhlar bilan ishlash
Ta'lim berish shakli	Jamoaviy, kichik guruh
Ta'lim berish vositalari	O'quv uslubiy qo'llanma, elektron darslik, kompyuter,

	baner plakatlari, multimediya, baner plakatlari. Kompyuter, proyektor, tarqatma materiallar
Ta'lim berish sharoiti	Metodik jihatdan jihozlangan audotoriya
Monitoring va baholash	Talabalar bilimi reyting nizomi talablariga muvofiq baholanadi. Mashg'ulotda joriy va mustaqil ish bo'yicha bilimlar darajasi belgilanadi.

Ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchi
Tayyorgarlik bosqichi (10 daqiqa)	1. Auditoriya tozaligini nazorat qilish. 2. Talabaning mashg'ulotga tayyorgarligini tekshirish. 3. Davomatni tekshirish.	Eshitadi, yozib oladi
1. O'quv mashg'ulotiga kirish bosqichi (10 daqiqa)	1. Mavzu bo'yicha o'quv mazmunini tayyorlash 2. Kirish ma'ruzasi uchun taqdimot slaydlarni tayyorlash. 3. Fanni o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini ishlab chiqish.	Mavzuni yozadilar. Tinglaydilar
Asosiy bosqich (50 daqiqa)	1. Talabalarni kichik guruhlariga bo'lib, mavzu bo'yicha savollarni beradi. 2. Ko'rgazmali plakatlardan foydalanadi. 3. Slaydlar, multimediyalardan foydalanadi. 4. Mavzuga oid berilgan ma'lumotlarni umumlashtiradi va xulosalaydi, faol talabalarni ragbatlantiradi va umumiy baholaydi.	Kichik guruhlariga bo'linadilar, tomosha qiladilar, tinglaydilar. Savollarga o'z nuqtayi nazarini bildiradi, qo'shimcha qiladi, savol

		beradi
Yakuniy bosqich (10 daqiqa)	1. Yakunlovchi xulosa qiladi. 2. Mustaqil ish beradi. 3. Uyga vazifa beradi.	Eshitadi. Xulosa yozadi. Topshiriqni oladi.

Mavzu matni

Insoniyat yer yuzida paydo bo'lishidan boshlab o'zligini anglashga harakat qilib keladi. Ming yillar davomidagi bunday sa'y-harakatlarga qaramasdan, hozirgi kunga qadar u o'zining mavjudligi va o'zligi haqida ko'pdab savollarga javob topa olgani yo'q. Bu savollarning asosiylaridan biri uning hayoti va faoliyatining ajralmas qismi hisoblangan – salomatlikdir. Yaqin kunlarga qadar salomatlikni o'rganish haqida fan mavjud emas edi. Faqat XX asrda rus olimi I.I.Brexman birinchilardan bo'lib yangi fan asoslarini ishlab chiqish muammosiga e'tiborni qaratdi va 1980-yil turmushga yangi atama “valeologiya” (lotincha valeo “salomatlik”, “salomat bo'lish”)ni kiritdi. Shu davrdan boshlab valeologiya ilmiy yo'nalish va fan sifatida nafaqat Rossiyada, balki undan tashqari dunyoning ko'plab davlatlarida rivojlana boshladi [78; 35, 90; 23].

Valeologiya fanlararo o'quv yo'nalishi bo'lib, uning asosida inson organizmiga ta'sir ko'rsatuvchi o'zgarib turuvchi tashqi va ichki muhitga ruhiy-fiziologik va ijtimoiy-madaniy chidamlilikni ta'minlovchi va salomatligini saqlovchi - organizmning genetik va funktsional zaxiralari va yaxlit organizm haqidagi qarashlar yotadi [90; 27].

Valeologiya o'quv fani sifatida inson salomatligi va sog'lom turmush tarzi haqidagi bilimlar majmuasini tashkil etadi (2.9-jadvalga qarang).

Valeologiyaning boshqa fanlar bilan aloqasi. Ayniqsa, valeologiyaning tibbiyot bilan tor doirada chambarchasligi mavjud bo'lib, bu salomatlikni ta'minlashning alohida savollari bilan shug'ullanuvchi sanologiya va gigiyena yo'nalishlarida namoyon bo'ladi. Lekin yuqorida ta'kidlanganidek, valeologiyaning mustaqil fan sifatida tavsifi mavjud (muammosi,

Valeologiya o'quv fanining elementlari

Valeologiya predmeti	Individual salomatlik va organizm zahiralari, shuningdek sog'lom turmush tarzi hisoblanadi. Shuning bilan valeologiya tibbiyotning ayni kontingent uchun umumiy tavsiyalar ishlab chiquvchi bir qator profilaktik yo'nalishlaridan ajralib turadi.
Valeologiya ob'yekti	Amaliy sog'lom va kasallikdan oldingi holatdagi inson hisoblanadi. Bunday tavsif valeologiyani o'ziga xos o'ringa qo'yadi, chunki yuqorida aytib o'tilgan kontingent hech qaysi yo'nalish ob'yekti hisoblanmaydi.
Valeologiya metodi	Inson salomatligi va zahiralarini sifatiy va miqdoriy baholash, shuningdek ularni yaxshilash yo'llarini izlash hisoblanadi.
Individual salomatlikni miqdoriy baholash	Aynan valeologiya uchun maxsus bo'lib, tibbiyotning asosi bo'lmish sifatli tahlilni rivojlantiradi va to'ldiradi. Miqdoriy asosda salomatlikning tavsifi, individual salomatlik darajasini dinamik baholash va yashash tarzi asosiga tegishli o'zgartirishlar kiritish imkonini beradi
Valeologiya maqsadi	Inson hayot faoliyati rezervlarini va irsiy mexanizmlarini maksimal ishga solish va uning tashqi va ichki muhitga moslashish imkoniyatlarini yuqori darajada saqlashga erishishdir. Shundan kelib chiqib, nazariy jihatdan valeologiyaning maqsadi salomatlikning shakllanish qonuniyatlari va sog'lom turmush tarzini modellashtirish va unga erishish yo'llarini ishlab chiqish yotadi. Amaliy jihatdan esa valeologiyaning maqsadi, salomatlikni saqlash, mustahkamlash va shakllantirish yo'llari va choralarini ishlab chiqish hisoblanadi.
Valeologiya vazifalari	Inson salomatligining shakllanish qonuniyatlarini o'rganish. Inson salomatligining holati va zahiralarini o'rganish va miqdoriy baholash. Sog'lom turmush tarzini shakllantirish yo'riqnomalarini yaratish. Inson salomatligini va salomatlik zahiralarini- sog'lom turmush tarziga erishish orqali saqlash va mustahkamlash.
Valeologiyaning boshqa fanlar bilan o'zaro aloqasi shakllantiradi	Insoniyati jamiyatining har bir riojlanish bosqichida ilmfanning ma'lum darajada rivojlanishi xarakterlidir. Ma'lum darajada bu inson salomatligi bilan bog'liq fanlarga ham tegishli. Lekin, salomatlik tushunchasining o'zi va uni ta'minlovchi omillar shu qadar murakkab va ko'p qirrali bo'lib, ko'plab fanlarning o'rganish predmeti sifatida ushbu asosiy tamoyillarni alohida- alohida o'rganadi. Natijada salomatlik muammolarini o'rganish bo'linib ketdi. O'ziga bir qancha fanlar yutuqlarini, biologiya, genetika, fiziologiya, psixologiya va inson hayot faoliyatining boshqa tomonlarini jamlab, valeologiya inson salomatligini tashhislash, prognozlash va uni boshqarish bo'yicha integral bilimlarni shakllantiradi.

predmeti, obyekti, metodi va b.), shuning uchun bu fanlar orasida prinsipial tafovutlar bor (2.10-jadvalga qarang).

Inson salomatligini o'rganuvchi fanlarni asosiy belgilari bo'yicha taqqoslash
(Y.K. Baxtin va boshq., 1989)

Fanni aniqlovchi belgilar	Tibbiyot (klinik, profilaktik, nazariy, eksperimental)	Gigiena (umumiy, kommunal, ijtimoiy, radiatsion, ovqatlanish, mehnat, o'smirlar)	Valeologiya (tibbiy, pedagogik, psixologik, ekologik, yoshga bog'liq)
Fanning asosiy yo'nalishi	Insonni kasalliklardan xalos qilish, ularni tashhishlash,	Inson hayot faoliyati va uning yashash muhiti sog'lom	Inson salomatligini shakllantirish, mustahkamlash va saqlash
	davolash va oldini olish	sharoitlarini yaratish va o'rganish.	
Asosiy kontseptsiyasi, doktrina	Inson va uning kasalliklari	Optimal yashash sharoiti va muhitdagi inson	Inson va uning salomatligi, sog'lom turmush tarzi
O'rganish ob'yekti	Kasallikka chalingan inson	Insonning yashash sharoiti va yashash muhiti	Amalda sog'lom inson
Izlanish predmeti	Inson kasalliklari, ularning sabablari rivojlanish mexanizmi; tashhishlash, davolash va profilaktikasi	Insonning sog'lom yashash sharoitlari va u yashovchi muhitning optimal xarakteristikasi	Inson salomatligi va uning rezervlari; ularni baholash, inson funktsional imkoniyatlarini mustahkamlash
Izlanish metodlari	Tashhishlash, davolash va <u>profilaktika metodlari.</u>	Atrof muhitning salomatlikka ta'sir etuvchi optimal xarakteristikasi va yashash sharoitlarini o'rganish metodlari	Salomatlik rezervlarini sifat va miqdoriy baholash, ularni pasaytirish profilaktikasi va normadan og'ish holatlarini korektsiyalash
Maqsadga erishish yo'llari va natijalar	Kasallanish, nogironlik va o'lim ko'rsatkichlarini kamayishi.	Aholi kasallanishi, travmatizmi va nogironlik ko'rsatkichlarini kamaytirish	Aholi salomatligini sog'lom turmush tarzini shakllantirish orqali mustahkamlash

Shundan kelib chiqib, valeologiya salomatlikning asosiy muammolarini hal etishni insonga ta'sir etish (sof tibbiy)dan boshlaydi. Shunday qilib, valeologiyaning asosiy belgilaridan kelib chiqib, uning prinsipial spetsifikligini, inson salomatligi muammosida va inson haqidagi fanlar orasidagi o'rnini ko'rish mumkin.

2.11-jadval

Valeologiyaning belgilari

Valeologiya tasnifi.	Ko'pchilik fanlar orasida nisbatan yoshligiga qaramasdan, ilmu-fanning boshqa sohalaridan valeologiyaga o'tgan olim qiziqishlarining spetsifikligi valeologiyaning sezilarni differensatsiyasi yuzaga keldi.
Valeologiyaning yo'nalishlari.	Umumiy valeologiya valeologiyaning asosini, metodologiyasini xuddi fan yoki bilim sohasi kabi ko'rsatadi. U valeologiyaning inson haqidagi fanlar orasidagi o'rnini, predmetini, metodini, maqsadini, vazifasini, tarixini, uni rivojlanishini belgilab beradi. Shu joyga insonning bio-ijtimoiy tabiati muammolari va uning salomatlikni ta'minlashdagi rolini kiritish joizdir.

Valeologiyaning tarmoqlanishi

Umumiy valeologiyadan uning tarmoqlari ajraladi	
Tibbiy valeologiya	Kasallik va sogʻlik orasidagi farqni, ularni tashislashni, salomatlikni tashqaridan quvvatlash yoʻllarini oʻrganadi va kasalliklarning kelib chiqishini ogohlantirishni, aholi va alohida ijtimoiy-yosh guruhlar salomatligini baholash kriteriyalarini, boshlanayotgan kasallikni bartaraf etishda organizmning zahiralari qoʻllash metodlarini, salomatlikka xavf soluvchi tashqi va ichki omillarni oʻrganadi, salomatlikni taʼminlash va sogʻlom turmush tarzini shakllantirish boʻyicha yoʻriqnomalarni ishlab chiqadi. Yaqin orada tibbiy valeologiya faoliyati birlamchi profilaktikaga qaratilgan-oilaviy vrachlarni tayyorlashda oʻzgacha oʻrin egallashi kutilmoqda.
Pedagogik valeologiya	Valeologiya turli yoshga mansub insonlarga salomatlik hamda sogʻlom turmush tarzini oʻrgatadi va tarbiyalaydi. Hozirda valeologiyaning bu tarmogʻi dinamik rivojlanmoqda, bu quyidagilarga bogʻliq: Jamiyatning insonda salomatlik madaniyatini tarbiyalash orqali sogʻlomlashtirish uchun tezkor tadbirlarga boʻlgan ehtiyoji; Bilim olish muhitining Bolalar salomatligiga negativ taʼsir qilish muammosi Aholini sogʻlomlashtirishda valeologik dasturlarni qoʻllashdagi kamxarajatlik.
Oilaviy valeologiya	Salomatlikni shakllantirishda oilaning va uning aʼzolarining oʻrni va rolini, oiladagi har bir avlodning va butun oilaning salomatligini taʼminlash uchun yoʻriqnomalar ishlab chiqaradi. Valeologiyaning bu qismi buyuk kelajakka ega, chunki salomatlikni shakllantirish-farzand tugʻilishiga tayyorgarlikdan boshlab, uni salomatlikgaongli munosabatni tarbiyalashgacha- maqsadli va aynan oiladan boshlash mumkin.
Ekologik valeologiya	Tabiiy omillarning va tabiatning antropogen oʻzgarishi oqibatining inson salomatligiga taʼsirini, salomatlikni saqlash maqsadida tashqi muhitda hosil boʻlgan sharoitlarda insonning yurish-turishini oʻrganadi. Shundan kelib chiqib, valeologiya bir tomondan oʻzgargan tashqi omillarning inson organizmiga taʼsir etish mexanizmlarini oʻrganishi, ikkinchi tomondan esa hosil boʻlgan ekologik sharoitlarda salomatlik nuqtai-nazaridan optimal hatti-harakatlar yoʻriqnomasini ishlab chiqadi.
Ijtimoiy valeologiya	Oʻz oldiga inson salomatligining jamiyatdagi oʻrmini, uning boshqa insonlar va jamiyat bilan koʻp tomonlama ijtimoiy xarakterdagi munosabatlarni oʻrganishni maqsad qilib qoʻygan. Ijtimoiy valeologiya qiziqishlari doirasida va ijtimoiy guruhlarda salomatlikni holatini oʻrganish ham yaxlit (jamoat, guruh) va ham uning alohida elementlarini oʻrganadi.

Pedagogik valeologiyaning asosiy tushunchalari - valeologik ta'lim, valeologik o'qish, valeologik tarbiya, valeologik madaniyat.

2.13-jadval

Pedagogik valeologiyaning asosiy tushunchalari

Valeologik ta'lim	Shaxsiy salomatligi va jamoat salomatligiga qimmatli muomalada bo'lishga qaratilgan, ilmiy va amaliy bilim va ko'nikmalarini, yurish-turish va faoliyatini shakllantirish tizimlarini rivojlantirishga qaratilgan inson salomatligini uzluksiz o'qitish orqali rivojlantirish, tarbiyalash jarayonidir
Valeologik o'qish	Bu inson salomatligiga erishish, uni saqlash va rivojlantirish qonuniyatlari bilimlarining shakllanish jaryoni, shaxsiy salomatlikni saqlash va mukammallashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish, uni shakllantiruvchi omillarni baholay olish; sog'lom turmush tarzi bilimlarini o'zlashtirish va uning tuzilmasini bilish, salomatlik va sog'lom turmush tarzi yuzasidan targ'ibot ishlari metodlari va vositalarini o'zlashtirish
Valeologik ta'limning samarasi	Insonning o'zining irsiy, fiziologik, ruhiy imkoniyatlarini, uni nazorat qilish usuli va vositalarini bilishi, o'z salomatligini saqlashi va rivojlantirishi, atrofdagilarga valeologik bilimlarini yetkaza olishiga olib keluvchi- valeologik madaniyati bo'lishi kerak. Valeologik ta'lim, ta'limning boshqa turlari bilan o'zaro bog'langan bo'lib, bir-biri bilan aloqada bo'ladi: aqliy, jismoniy, kasbiy, estetik va boshqalar

Pedagogik valeologiyaning vazifasi kerakli darajada keng bo'lib, ularning asosiylariga quyidagilarni kiritish mumkin.

Insonda salomatlikning ustun jihatlari va inson organizmining yashash faoliyati mexanizmlari haqida olingan bilimlariga asoslanib salomatlik va sog'lom turmuush tarziga qo'zg'almas motivatsiyani tarbiyalash. Insonni o'z salomatligini

saqlashda organizmning funksional imkoniyatlarini va tabiiy sogʻlomlashtiruvchi vositalaridan foydalanishga, oʻzining jismoniy holatini baholash metodlari va vositalaridan foydalanishni oʻrgatish [47; 38, 90; 74].

Insonlarning somatik salomatlik darajasini valeologik baholash va dinamik nazoratini, ularni sogʻlomlashtirishda jismoniy tarbiya mashgʻulotlari tizimi, ruhiy korreksiya, ruhiy-pedagogik konsultatsiya ishlarini tashkillashtirish va b. [47; 38, 90; 75].

Tashkilotni valeologik baholash, oʻquv dargohida taʼlim jaryoni tarkibini va uni maqsadga muvofiq korreksiyalash.

Oilada bolalarning sogʻligʻi uchun qulay sharoitlar yaratish yuzasidan otalar bilan ishlash.

Birdam fikrli pedagoglar jamoasini shakllantirish maqsadida bilim yurtining pedagogik tarkibi bilan ishlash [47; 257, 55; 106].

Mavzu savollari:

1. Ijtimoiy-gigiyenik ahamiyatga ega boʻlgan kasalliklarni oʻrganish, ularni kamaytirish borasida OSHning roli.
2. Epidemiologik tadqiqotlar turlari, bosqichlari.
3. Dalillarga asoslangan tibbiyot.
4. Oʻzbekiston Respublikasi sogʻliqni saqlash asoslari. Asosiy prinsiplari, vazifalari.
5. Sogʻliqni saqlash tizimidagi asosiy qonun va meʼyoriy hujjatlar.

Mavzuni mustahkamlash uchun grafik organayzer

“Ikki qismlik kundalik”

1-sahifa	2-sahifa
Salomatlik	
Sogʻlom turmush tarzi	
Nosogʻlom turmush tarzi	
Kasalliklar	

“Valeologiya” modulidan integratsiyalashgan amaliy mashg‘ulot ishlanmasi

Amaliy mashg‘ulot

Mavzu: Salomatlik va sog‘lom turmush tarzining ijtimoiy qirralari

Amaliy mashg‘ulotning texnologik xaritasi va ishlanmasi modeli	
Mashg‘ulot soati: 80 min	Talaba soni 9-10
Mashg‘ulot shakli	Amaliy mashg‘ulot
Mashg‘ulot rejasi:	Valeologiya fani va uni o‘qitish predmeti sifatida. Valeologiya fanining obyekti va subyekti. Valeologiya - individual salomatlik to‘g‘risidagi fan.
O‘quv mashg‘ulot maqsadi	Ta’limiy: talabalarga salomatlik va sog‘lom turmush tarzining ijtimoiy qirralari to‘g‘risida bilim va ko‘nikma berish. Tarbiyaviy: mavzuga oid hayotiy misollar orqali talabalar ongida aholining tibbiy madaniyatini oshirish, aholi salomatligini yaxshilashda o‘z hissasini qo‘shishga intilish, o‘zi tanlagan kasbga mehr uygotish. Rivojlantiruvchi: mavzuni tushuntirishda yangi adabiyotlar asosida, ilmiy asoslangan dalillar orqali talabalarning zamon talabiga mos kadrlar bo‘lib yetishishiga erishish.
Ta’lim berish usuli	Interfaol usul, kichik guruhlar bilan ishlash
Ta’lim berish shakli	Jamoaviy, kichik guruh
Ta’lim berish vositalari	O‘quv uslubiy qo‘llanma, elektron darslik, kompyuter, baner plakatlar mavzusidagi multimedia, Kompyuter, proyektor, tarqatma materiallar
Ta’lim berish sharoiti	Metodik jihatdan jihozlangan audotoriya


Monitoring va baholash	Talabalar bilimi reyting nizomi talablariga muvofiq baholanadi. Mashg'ulotda joriy va mustaqil ish bo'yicha bilimlar darajasi baholanadi.
------------------------	---

Amaliy mashg'ulotning xronologik xaritasi

Ishbosqichlariva vaqti	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchi
Tayyorgarlik bosqichi (10 daqiqa)	1. Auditoriya tozaligini nazorat qilish. 2. Talabaning mashg'ulotga tayyorgarligini tekshirish. 3. Davomatni tekshirish.	Eshitadi, yozib oladi
1.O'quv mashg'ulotiga kirish bosqichi (10 daqiqa)	1. Mavzu bo'yicha o'quv mazmunini tayyorlash 2. Kirish ma'ruzasi uchun taqdimot slaydlarni tayyorlash. 3. Fanni o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini ishlab chiqish.	Mavzuni yozadilar. Tinglaydilar
Asosiy bosqich (290 daqiqa)	1. Talabalarni kichik guruhlariga bo'lib, mavzu bo'yicha savollarni beradi. 2. Ko'rgazmali plakatlardan foydalanadi. 3. Slaydlar, multimediyalardan foydalanadi. 4. Mavzu berilgan ma'lumotlarni umumlashtiradi va xulosalaydi, faol talabalarni rag'batlantiradi va umumiy baholaydi.	Kichik guruhlariga bo'linadilar, tomosha qiladilar, tinglaydilar. savollarga o'z nuqtayi nazarini bildiradi, qo'shimcha qiladi, savol beradi.
Yakuniy bosqich (10 daqiqa)	1. Yakunlovchi xulosa qiladi. 2. Mustaqil ish beradi. 3. Uyga vazifa beradi.	Eshitadi. Xulosa yozadi. Topshiriqni oladi.


Mashg‘ulotning borishi

1-topshiriq. Valeologiya fanining qanday yo‘nalishlari va tarmoqlarini bilasiz? Ularning qanday o‘ziga xos xususiyatlari mavjud? “Qanday?” diagrammasi orqali tavsiflang. Muammoni hal qilishda o‘zingizga beradigan asosiy savol – bu “QANDAY?” savolidir. Ko‘pchilik holatlarda nima qilish haqida o‘ylamaysiz. Muammoning javobi deyarli hammavaqt buni qanday qilish kerak savolida bo‘ladi. “QANDAY?” usulini ishlatgan paytimizda “Qanday?” degan bir savolga javoban yana boshqa shunday savol bo‘lishi kerak. Shu sababli ish jarayonida siz nafaqat imkoniyatlarni, balki ularni amalga oshirish yo‘llarini ham o‘rganib chiqasiz (2.13-rasmga qarang).




2.13- rasm.“Qanday?” diagrammasi

2-topshiriq: Klasterni davom ettiring (2.14-rasmga qarang).




2.14- rasm. Klaster

3-topshiriq. Alkogolizm oqibatida kelib chiqadigan kasalliklarni “norvon” zinalariga joylashtiring (jigar sirrozi) (2.15-rasmga qarang).



2.15- rasm. Alkogolizm oqibatida kelib chiqadigan kasalliklarni “norvon” zinalariga joylashtirish

4-topshiriq. “Inson salomatligi va sog‘lom turmush tarzi” mavzusiga oid krossvordni yechish. Talabalar guruhlarda topshiriqni bajaradi. Barcha guruhlarga bir mavzudagi krossvord beriladi (2.16 , 2.17-rasmlarga qarang). Ya’ni:



2.16-rasm. Krossvord

Krossvord savollari

Bo'yiga: 1) organizmga tashqi yoki ichki muhitning zararli omillari ta'sir etganda ro'y beradigan patologik jarayon; 4) jonsiz materiyadan bir qancha xususiyatlari bilan farq qiladigan tirik mavjudot; 5) organ va to'qimalar funktsiyalarining pasayishi va hajmining kichrayishi.

Eniga: 2) salomatlik va uni mustahkamlash to'g'risidagi fan; 3) organizmning o'zida mavjud belgi va xususiyatlarini keyingi avlodga o'tkazish xossasi.

Krossvordning javobi

	k												
v	a	l	e	o	l	o	g	i	y	a			
	s			r						t			
	a			g						r			
	l			a						o			
	l			n						f			
	i	r	s	i	y	a	t			i			
	k			z						y			
				m						a			

2.17-rasm. Krossvord

2.14-jadval

Moslikni toping

TERMIN	IZOH
Dissimilyatsiya	Hujayralar soni yoki hajmining ortishi natijasida organning kattalashuvi.
Miksedema	Tashqi ta'surotlarga organizmning javob reaksiyasi
Gipertrofiya	Organizmdan keyinchalik chiqarilib tashlanadigan yoki hujayra va to'qimalar uchun zarur bo'lgan yangi kimyoviy birikmalar hosil bo'lishida foydalaniladigan turli kimyoviy moddalarning parchalanishidan iborat.
Refleks	Katta yoshdagi odamlarda bezning gipofunktsiyasi natijasida kasalligi rivojlanib, bunda moddalar almashinuvi 20-30 % pasayadi, mushak tarangligi (tonusi) zaiflashadi va oliy faoliyati buziladi (xotira yomonlashadi, apatiya holati yuzaga keladi).


2.15-jadval

Vaziyatli topshiriqlar
(Kichik guruhlarda ishlanadi)

Vaziyatli topshiriqlar	
Yechim yo'li	Erkaklar uchun normal tana vaznini aniqlash uchun modifikatsiyalangan indeks: $MI = [(Bo'yi, sm \cdot 4 : 2,54) - 128] \cdot 0,453$. Bu erkak uchun normal vazn 72 kg hisoblanadi, haqiqiy vazni esa 83 kg. Jismoniy salomatlikni yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar: sog'lom yurish va yugurish; gimnastika; yomon odatlardan voz kechish; to'liq va oqilona ovqatlanish; ratsional kundalik tartib.


Topshiriq	Erkak, 35 yoshda, bo‘yi 174 sm, vazni 92 kg. Erkaklar uchun modifikasiyalangan meyor bo‘yicha normal tana vaznini aniqlang va jismoniy salomatlikni yaxshilash uchun faoliyatni taklif qiling
Topshiriq	Erkak, 52 yoshda, bo‘yi 177 sm, vazni 84 kg. Erkaklar uchun modifikasiyalangan meyor bo‘yicha normal tana vaznini aniqlang va jismoniy salomatlikni yaxshilash uchun faoliyatni taklif qiling.
Topshiriq	39 yoshli ayolning fe‘l-atvori quyidagi xususiyatlarga ega: doimo ko‘tarinki kayfiyat va faoliyatga chanqoq, lekin u ishni oxiriga etkazmaydi, gapga chechan. Ushbu ayolning xarakter turini aniqlang va uni yaxshilash choralarini taklif qiling.

Birinchi guruh uchun topshiriq – turar joyi poliklinikasi huzurida bolalar va o‘smirlar o‘rtasida qandli diabetni profilaktika qilish salomatlik maktabini tashkil etish. Ushbu maqsadda quyidagilarni amalga oshirish lozim (2.18-rasmga qarang).



2.18-rasm. Birinchi guruh uchun topshiriq

Ikkinchi guruh uchun topshiriq – turar joyi poliklinikasi huzurida bolalar va o'smirlar o'rtasida bronxial astma kasalligini profilaktika qilish salomatlik maktabini tashkil etish. Ushbu maqsadda quyidagilarni amalga oshirish lozim (2.19-rasmga qarang):



2.19-rasm. Ikkinchi guruh uchun topshiriq

2.16-jadval

Topshiriqni to'ldirish varag'i

T/R	Mavzu	Mas'ul	O'tkazish kuni va vaqti	O'tkazish joyi
1	Ma'ruza			
1.1				
2	Amaliy mashg'ulotlar			
2.1				

Mashg'ulotning yakunlanishi

O'qituvchi barcha guruhlarining faoliyatini alohida qayd etadi va baholaydi.

Mashg'ulotga umumiy yakun yasaladi.

Talabalar uchun uy vazifalari beriladi.

Adabiyotlar

Asosiy va qo‘shimcha o‘quv adabiyotlar hamda axborot manbalari


Asosiy adabiyotlar

1. Sh.B.Irgashev. “Медицинская валеология”. - Ташкент, 2012. – 335 s.
2. Н.Т.Иbadullaeva. “Valeologiya asoslari”. O‘quv qo‘llanma, - Toshkent, 2010. –115 b.
3. Х.Т.Ибадуллаева. “Основы валеологии”. Учебное пособие, Ташкент, 2010. – 124 с.
4. Sayfiddin Faxriddin o‘g‘li. “Valeologiya asoslari yoxud sog‘lom avlod”. - Toshkent, 2007. – 255 b.
5. D.D.Sharipova. “Valeologiya asoslari”. - Toshkent, 2010. – 115 b.

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. B.A.Duschanov, I.K.Abdullaev, A.S.Bobojonov, B.M.Mamatkulov. “Ayollar salomatligi – ijtimoiy-ekologik omillar va turmush tarzi. - Toshkent, 2005. - 207 b.
2. Шариро Б.М. “Здоровый образ жизни”. - Москва, 2003. – 272 с.
3. В.С.Полунин. Календарь здорового образа жизни. - Москва, 2000. - 247 с.

Fanlararo integratsiya asosida ushbu model bo‘yicha tibbiyot oliy ta’lim muassasalari talabalari o‘rtasida kreativlik qobiliyatlarni rivojlantirish modeli ishlab chiqilgan: ushbu maqsaddan kelib chiqadigan maqsad va tegishli vazifalar, funktsiyalar, tamoyillar, bosqichlar va pedagogik shartlar, shuningdek, shakllari, usullari, bundan tashqari pedagogik jarayonni tashkil etish va vositalari, rivojlanish mezonlari, ko‘rsatkichlari va natijada professional kreativ fikrlash rivojlangan mutaxassis holatida ushbu o‘zaro muloqot jarayon tavsiflandi (2.20-rasmga qarang).



2.20-rasm. Tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalarini o'qitishning integrativ-kreativ imkoniyatlari modeli

III BOB. PEDAGOGIK TAJRIBA-SINOV ISHLARI VA OLINGAN NATIJALAR TAHLILI

3.1. Pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil qilish va o'tkazish metodikasi

Tibbiyot oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari, bo'lajak mutaxassislar aholi salomatligi va muhofazasi uchun mas'ul hisoblanadilar.

Shu nuqtayi nazardan, tadqiqot doirasida tibbiyot oliy ta'lim muassasalari davolash ishi ta'lim yo'nalishi o'quv rejalaridagi fanlar bloki (gigiyena, ichki kasalliklar propedevtikasi, valeologiya, jamoat salomatligi, rehabilitologiya) fan dasturlari mazmuni tahlil qilindi.

Tahlil qilingan dasturlarda aholi va inson salomatligini saqlashga doir bir qator mavzular keltirilgan bo'lsa-da, integrativ-kreativ yondashuv asosida talabalarni o'qitishning zamonaviy shakl, usul, metodlari, vositalari, omillari, funksiyalari hamda metodikasi yo'nalishidagi mavzular o'z aksini topmagan.

Tajriba-sinov ishlari ko'rsatishicha, talabalarning kreativ xususiyatlari xotira, diqqat, oliy nerv faoliyati, sensomotor reaksiyalar kabi psixik xususiyatlar bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Bu esa o'rganilayotgan hodisaning inson rivojlanishi uchun zarur bo'lgan ijtimoiy-biologik xususiyatini isbotlaydi.

Bizning fikrimizcha, fanlararo integratsiya asosida talabalar kreativ tafakkurining rivojlanishi, bo'lajak mutaxassislar shaxs xususiyatlarini namoyon qiladigan 3 bosqichda amalga oshadi.

Birinchi bosqichda gumanitar, tabiiy-ilmiy hamda maxsus fanlar blokidan tegishli bilim, ko'nikma va malaklar fondi shakllanadi.

Ikkinchi bosqichda shakllangan bilimlar fondini nazorat qilish va undan foydalanish ko'ffitsiyenti ko'tariladi. Ya'ni talabalar tomonidan o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalar pedagogik-psixologik vazifalarni yechish imkoniyatini beradi.

Kreativ tafakkurni rivojlantirishning uchinchi bosqichida talabalar oldiga "maxsus" qiyinchilik darajalariga ega bo'lgan vaziyatlar asosida vazifalar qo'yilib,

ularga ijodkorlik qobiliyatlarini namoyon qilgan holda adekvat, tez va ratsional yechimlarni topish vazifasi qo'yiladi.

Tadqiqot ishida tanlangan mavzuga oid adabiyotlar sharhi va tizimlashtirish, tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida tibbiy ta'limning turli bosqichlarida talabalarda kreativlik rivojlanganligining holati, mazmun hamda mantiqiy tavsifini baholashga qaratilgan ilmiy izlanish olib borish imkonini tug'dirdi.


Ta'lim jarayonida talabalar kreativ tafakkurining vujudga kelish holatini o'rganish "kesimlar" metodi orqali amalga oshirildi. Ya'ni biz o'qitishning turli bosqichlarida talabalar kreativlik darajasining o'ziga xosliklarini o'zaro taqqoslab tegishli xulosalarga keldik. Bu bosqichlar sifatida 1-kursning ikkinchi jarayoni, 3-kursning ikkinchi hamda 6-kursning ikkinchi jarayonlari tanlab olindi. Bu bosqichlar tanlanishidan maqsad 1-3-6 kurslar davolash ishi yo'nalishi bo'yicha bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash ta'lim jarayonining dastlabki, oraliq va yakuniy bosqichlari hisoblanadi.

Tajriba sinov ishlari davomida ta'lim jarayonida bo'lajak tibbiyot sohasi mutaxassislari kreativligini rivojlantirishga qaratilgan, tegishli metodikalar tizimini jamlagan, psixodiagnostik dastur tizimi tayyorlanib amaliyotga tadbiq etildi.

Talabalar kreativligini tashxislash R.Amtxauerning intellekt strukturasi testi, "Tushunchalarni qiyoslash", "Keraksizi ortiqcha", "So'z labirinti", "Vaziyatlar yechimini top" (badiiy-metaforik tafakkur darajasini tashxislash, taniqli obyektlar va hodisalarni taqqoslash asosida yangi bilimlarni shakllantirish), S.Mednikning "Verbal kreativlikni tashxislash" metodikalari yordamida amalga oshirildi.

Turli ta'lim bosqichlarida davolash ishi ta'lim yo'nalishi talabalari kasbiy tafakkurining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish ishlari shuni ko'rsatdiki, 1-kursdan 6-kursga qadar talabalar kreativlik darajasining o'sishi, mushohada, assotsiativ, ya'ni o'zaro bog'liqlikdagi aloqalarni o'rnatish, tafakkur tezligining oshishi qayd qilindi. Shuningdek, ma'lum bir vazifani yechishda bir usuldan ikkinchisiga o'tish holatidagi salbiy ko'rsatkichlar pasayib, verbal faollik, tahlil, maqsadga yo'nalganlik, tushunchalarning majoziy ma'nolarini anglash, nutq

jarayonining ravonligi va mantiqiyliги kabi xususiyatlarda ijobiy o‘zgarishlarga erishildi (3.1-rasmga qarang).



3.1-rasm. Kreativlikni rivojlantirish uchun vazifalar

“Rivojlantiruvchi dastur”imizning umumiy tuzilishi 4 ta: motivatsion, axborot, instrumental hamda refleksiv tarkibiy qism, bloklar sifatida taqdim etildi (3.1-jadvalga qarang).

Guruh a‘zolarining kreativligini rivojlantirishga qaratilgan istaklari va kutilayotgan natija bo‘yicha kichik o‘zaro taqdimotlar turli, jumladan: “ismim”, “muzyorar”, “keling tanishamiz” kabi psixogimnastik mashqlar orqali amalga oshirildi. Buning natijasida eksperimentda ishtirok etayotgan talabalarda: muvaffaqiyatga intilish, o‘zi va guruh a‘zolari xatti-harakatlarini yanada yaxshiroq tushunish, o‘ziga ishonch, o‘z yutuqlarini ko‘ra olish va undan faxrlanish, o‘quv-tarbiya jarayonida samarali o‘zaro muloqot va ta’sirga kirishish hissi, darslarni o‘ziga xos va qiziqarli tarzda o‘tish kabi ahamiyatli motivlar paydo bo‘ldi.

Jamoaviy muhokama natijasida pedagogik jarayonda refleksiyaning tashkilotchilik, ma’no hosil qiluvchilik, motivatsion, korreksion hamda pedagogik funksiyalari, xususiyatlari belgilab olindi.

“Rivojlantiruvchi dastur”ining umumiy tuzilishi

Motivatsion blok	Talabalarining “Rivojlantiruvchi dastur”da ishtirok etishga ijobiy motivatsiyani uyg‘otish va hosil qilishdan iborat bo‘ldi. Chunki, dastur rahbariga ishonmaslik yoki uni yoqtirmaslik, guruhdagi nosog‘lom muhit, dastur maqsadi va vazifalarini tushunmaslik, oldimizga qo‘yilgan maqsadga erishish va yakuniy natijaga salbiy ta’sir etishi mumkin edi. Birinchi navbatda guruhda sog‘lom va do‘stona munosabatlarni o‘rnatishga harakat qildik. Birinchi mashg‘ulotda guruh a’zolarining o‘zaro hamda dastur rahbari bilan tanishuvlari tashkil etildi.
Axborot blok	Bo‘lajak mutaxassislariga kasbiy faoliyatga doir turli axborotlarni taqdim etish va ular tomonidan axborotlarni o‘qish, tahlil qilish va matn bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishdan iborat bo‘ldi. Talabalarga kasbiy faoliyatini davom ettirish, o‘z sohalarida muvaffaqiyatlarga erishish maqsadida qanday ishlarni amalga oshirish ketma-ketligini belgilash maqsadida topshiriqlar beriladi. Talabalar o‘z navbatida munozara asosida nutq imkoniyatlarini namoyon qilish, tovush tembri, maromi, diapazoniga e’tibor bergan holda o‘z fikrlarini yoqimli tarzda ifodalash imkoniyatlarini mukamallashtiradilar. Tafakkur va nutq birligi va uyg‘unligi har qanday kreativligni rivojlantirishning asosiy omili hisoblanadi.
Instrumental blok	Bo‘lajak mutaxassislarda matnlar bilan ishlash ko‘nikmalari hamda verbal kreativlikni namoyon qilishdan iboratdir. Bu jarayonda egallanishi zarur bo‘lgan materiallar mazmunini yorituvchi matnlardagi bosh hamda ikkinchi darajali fikrlarni analiz qilish, ajratish va o‘zlashtirish masalasi asosiy o‘rin egallaydi. Shuningdek, talabalar ma’ruza matnlarini samarali konspektlashtirish, ilmiy adabiyotlar bilan mustaqil ishlash, maqolalar, tezislar tayyorlash, doklad tayyorlab uni taqdim etish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar.
Refleksiv blok	Talabalarda refleksiya darajasini oshirishdan iboratdir. “Rivojlantiruvchi dastur”ni amalga oshirish muddati 12 haftani tashkil etdi (haftasiga 2 tadan mashg‘ulot). Mashg‘ulotlardagi bajariladigan ishlar shaxsning kognitiv xususiyatini rivojlantirishga qaratilib, turli psixotexnik mashqlar va refleksiv vazifalar qo‘llanildi. Bu mashqlar orqali relaksatsiya, konsentratsiya (diqqat), vizualizatsiya, o‘zini o‘zi ishlantirish kabi xususiyatlar rivojlantirilishiga erishildi.

Har qaysi qismimiz, ya'ni tuzilmaviy blokimiz o'zining tematik mavzu asosidagi mashg'ulotlaridan iborat bo'lib, ularni o'tkazish jarayonida ma'ruza, munozara, muammoli savollar, tahlilga berilgan materiallar, atqali shaxslarning hikmatli so'zlarini jamoaviy muhokama qilish, fikriy hujum, pedagogik vaziyatlar tahlili, intellektual o'yinlar, evristik suhbatlar, psixogimnastik, psixotexnik hamda refleksiv mashqlardan foydalanildi.

Tajriba-sinov ishlarining shakllantiruvchi bosqichiga "Davolash ishi" yo'nalishi talabalari jalb qilindi.

Rivojlantiruvchi dasturning samaradorligi darajasi tajriba sinovdan oldin belgilab olingan metodikalar orqali aniqlanib, olingan natijalarning aniqlik darajasi Styudentning T-mezoniga asoslanib o'z tasdig'ini topdi.

"Rivojlantiruvchi dastur"ni qo'llash natijasida olingan natijalar tajriba guruhidagi talabalarda kasbiy tafakkurning: refleksiv tafakkur ($t = 3,24; p < 0,01$), verbal kreativlik ($t = 3,45; p < 0,01$) hamda metalingvistik xabardorlik ($t = 4,18; p < 0,001$) kabi asosiy ko'rsatkichlarining ijobiy tarzda o'zgarganligidan dalolat berdi.

Xulosa qilib aytganda, taklif etilgan "Rivojlantiruvchi dastur" ilmiy tadqiqot natijasida "Davolash ishi" yo'nalishi bo'yicha talabalarning ijodiy qobiliyatlarini mantiqiy fikrlash, bahs-munozaralar orqali rivojlantirish, saviyasini oshirishga qaratilgan. Ijodiy qobiliyatlarning xususiyatlari haqida fikrlashning refleksivligi va olingan bilim, ko'nikma hamda kasbiy malakalarni mustahkamlashga erishildi, ularda klinik ijodkorlik shakllandi.

Biz tomonimizdan olib borilgan tajriba-sinov ishlari davomida bo'lajak shifokorlarning auditoriya, auditoriyadan tashqari hamda amaliyot davridagi kreativligini shakllantirish jarayoni samaradorligi aniqlandi.

O'quv jarayonini tashkil etish metodlari va usullari kasbiy kreativ xususiyatlarini shakllantirishning ketma-ketligi va uzluksizligini ta'minlash nuqtayi nazaridan tanlab olindi.

Barcha auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar kreativ xususiyatlarni shakllantirishni rejali va maqsadli amalga oshirish jarayonini

nazarda tutib tashkil qilindi. Asosiy e'tibor talabalarda tanqidiy va o'zini-o'zi tahlil qilishni rivojlantirish, o'z harakatlariga ishonch hissini uyg'otish, aniq amaliy vaziyatlarda egallangan bilimlarini qo'llay olish xususiyatlarini takomillashtirga qaratildi.

Tadqiqot natijalaridan talabalarda kreativ xususiyatlar ijobiy pedagogik holatlar va qulay shart-sharoitlarda asta-sekin shakllanib borishini ko'rish mumkin.

Davolash ishi ta'lim yo'nalishi talabalarining mustaqil, ijodiy faoliyat ko'rsatishlariga ko'maklashish ularning o'z mavqelarini aniqlashlari va amalda tatbiq etishlari uchun sharoit yaratish, ijodiy faoliyatlarini pedagogik qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan topshiriqlarni taqdim etishni anglatadi.


Talabalarining ongi va dunyoqarashi, tafakkuri hamda ruhiyatini eskicha qarashlardan, boqimandalik, tashabbussizlik, mute'lik, qaramlik kabi illatlardan soqit etish, tozalash yana ham murakkab ijtimoiy muammodir. Bu darajada ulkan va keng miqyosli tadbirlarni jamiyat hayotining barcha jabhalarida bosqichma-bosqich, bir tekisda uyg'un va izchil amalga oshira borish uchun zamonaviy mehnat bozori talablariga hamohang, yangicha fikr va dunyoqarashga ega, mustaqil ravishda kreativ fikrleydigan yoshlarni tarbiyalash bugungi davrning eng muhim vazifalaridan hisoblanadi.

Tibbiyot oliy dargohining maqsadi mehnat bozori va iqtisodiyotning ehtiyojlarini aniq hisobga olgan holda, jamiyatning ta'limga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish maqsadida oliy ta'lim dargohining imkoniyatlarini yanada kengaytirish, bo'lajak tibbiyot sohasi mutaxassislarining madaniy, ilmiy va tibbiy (kasbiy) layoqatlarini rivojlantirish tizimining qulayligini oshirishdan iboratdir.

2-3-4-5-6-kurs talabalari orasida o'tkazgan so'rovnomalar natijalari aniq qilinganda, talabalarda ijodkorlik, tafakkur va uning ko'rinishlari hamda shakllari haqida birmuncha ma'lumotlar mavjud. Ammo ularda kreativlik va uni rivojlantirish usullari haqida ma'lumotlar deyarli yo'q.

Biz tomonimizdan olib borilgan tadqiqod ishida "Davolash ishi" ta'lim yo'nalishi talabalariga mutaxassislik fanlarini fanlararo integratsiya asosida o'qitish va darsdan tashqari mustaqil ishlarda kreativlikni rivojlantirish yo'llarini

ko'rsatishga e'tibor qaratildi. Bu jarayonda mashg'ulotlar tahlili, talabalar bilan savol-javoblar, so'rovlar, metodik yondashuvlar va ma'rifiy-tarbiyaviy tadbirlar mazmuni o'rganilib, kuzatishlar umumlashtirildi (3.2-rasmga qarang).



3.2-rasm. Kreativlikni rivojlantirish jarayoni

Yuqoridagi 3.1-rasmda ko'rsatilgan kreativlikni rivojlantirish jarayoni talabalarning mustaqil ijodiy va auditoriyadan tashqari vaqtlarda bajaradigan tadbirlari tizimi, tarbiyaviy yo'nalish bo'lib hisoblanadi. Oliy maktabda ma'ruza ta'lim berishning asosiy shakli bo'lib qolayotgan bo'lsa ham, unga ijodiy yondashuv zarurligini nazarda tutib, fanlararo integratsiya asosida kreativlikni rivojlantirish bo'yicha o'qiladigan ma'ruza mashg'ulotining boshlanishini suhbat, yakunlashni esa umumlashtiruvchi bahs darsi sifatida belgilashni ma'qul ko'rdik. Chunki birinchi suhbat orqali talabalarda yangi mavzuga qiziqish uyg'otib, ularni ma'ruza tinglashga tayyorlash ko'zda tutilsa, yakuniy mashg'ulotda erkin fikrlash va muayyan xulosalarga kelish imkoni tug'iladi.

Kreativ tafakkurni rivojlantiruvchi adabiyotlar va maqolalarning so'nggi vaqtlarda birmuncha ko'payganini hisobga olganda, tadqiqot ishida aynan

talabalarning darsdan bo'sh vaqtlarida bajaruvchi ishlari mazmunan kreativlikni rivojlantirish bilan birga bo'lajak kasbiga yo'naltiruvchi, klinik fikrlash doirasini kengaytiruvchi topshiriqlarga e'tibor qaratildi.

Talabalarning kelgusidagi faoliyati samaradorligini ta'minlaydigan kreativlikni rivojlantirish masalasi hozirgi kunda o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Undan ta'lim-tarbiya jarayonida, jumladan, mutaxassislik fanlarini o'qitishda keng foydalanish mumkin. Bunda dars va darsdan tashqari mashg'ulotlar, maxsus kurs va fakultativ fan yoxud malakaviy amaliyot kabi shakllarni qo'llash foydalidir.

Tajriba-sinov ishlari Buxoro davlat tibbiyot instituti davolash ishi bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari ishtirokida olib borildi. Sinov ishiga tajriba maydonlaridan jami 448 nafar respondent-talabalar biriktirildi (3.2-jadvalga qarang).

3.2-jadval

Tajriba-sinov ishlariga jalb etilgan OTM va talabalar

	OTMning nomi	Respondentlar soni			
		Tajriba guruhi		Nazorat guruhi	
		Soni	% hisobida	Soni	% hisobida
1	TTA Urganch filiali	63	27	60	28
2	Buxoro davlat tibbiyot instituti	89	38	78	37
3	Samarqand davlat tibbiyot instituti	84	36	74	35
Jami:		236	100	212	100

Tajriba-sinov ishlarida shartli ravishda "Tajriba guruhi" va "Nazorat guruhi" deb belgilab olingan guruhlarda o'tkazilib, ikkala guruhga ham oldindan tayyorlangan, bir xil tuzilish va mazmunga ega materiallar tarqatilib, bir necha xil

interfaol usullardan foydalangan holda olib borildi. Har ikkala guruh respondentlarida shakllangan bilim, malaka va fazilatlar solishtirildi. Shuningdek, jamoat salomatligi, valeologiya va integratsiyalashtirilgan fanlar mazmuni, o'rganish shart-sharoitlari, metodlari tanlanib, savol-javob, pedagogik kuzatish natijalari, talabalarning bilimini nazorat qilish va baholash mezonlari jamlandi.

Nazorat va tajriba-sinov guruhlarining natijalari muntazam tahlil qilib borildi va bir-biriga taqqoslanib xulosalar chiqarildi. Tajriba ishlarini olib borishda yuqori saviyada tashkillashtirilgan ko'rgazma va didaktik materiallar yordamida olib borilgan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda interfaol ta'lim texnologiyalaridan foydalanib ishlab chiqilgan uslubiy ishlanmalar noan'anaviy ta'lim metodlaridan to'g'ri foydalanilganligi sababli o'zining samarasini ko'rsatdi.

Tajriba-sinov ishlari davomida har ikki guruh respondentlari egallagan bilimlarini aniqlash va solishtirish guruh fan o'qituvchilari bilan birgalikda tahlil qilindi.

Fanlararo integratsiya asosida kreativlik xususiyatlarni tarkib toptirish darajalari boshlang'ich hamda yakuniy tashxislarining natijalari har bir guruhda o'zaro muvofiq keladigan tashxislash metodlari va vositalari asosida amalga oshirildi. Tajriba boshida tashxislash natijalarini ifodalovchi ko'rsatkichlar har uchala bosqichda ham biz tomonimizdan tatbiq etilgan tizimning samaradorlik darajasini ifodalash imkonini berdi.

Respondent talabalarining kreativlik xususiyatlarini tarkib toptirishga doir bilim darajalari quyidagi anketa savollari orqali aniqlandi:

1. Kreativlik deganda nimani tushunasiz?
2. Sizningcha, bo'lajak tibbiy xodim ijodiy tafakkurining rivojlanishi nimalarga bog'liq?
3. Fanlararo integratsiya tushunchasini izohlang.
4. Bo'lajak tibbiy xodimning qanday integrativ-kreativ imkoniyatlari mavjud deb bilasiz?
5. Bo'lajak tibbiy xodim sifatida o'zingizda integrativ-kreativ imkoniyatlar rivojlangan deb hisoblaysizmi?

6. Professor-o'qituvchining muloqot jarayonida "integrativ-kreativ faoliyati yetakchi vosita" degan fikrga munosabatingiz?

7. Ta'lim jarayonida o'qituvchining integrativ-kreativ imkoniyatlarini qanday parametrlar asosida qurilishini tasavvur qilasiz?

8. Zamonaviy tibbiyot oliygohi o'qituvchisi qiyofasida integrativ-kreativ imkoniyatlarning o'rni va ahamiyati nimalarga bog'liq?

9. Bo'lajak tibbiy xodimning integrativ-kreativ imkoniyatlarni rivojlantirishga doir ilg'or xorijiy mamlakatlarning tajribasidan xabardormisiz? Qaysi davlatlar misolida?

10. Sizning tibbiy oliy ta'lim muassasalari talabalarida integrativ-kreativ imkoniyatlarni rivojlantirishga doir bo'lgan munosabatingiz qanday?

Tadqiqot ishlari davomida o'quv yili avvalida tadqiqot materialiga bog'liq tushunmovchiliklar yuzasidan tadqiqotga qatnashuvchi respondentlar bilan suhbatlar tashkillashtirilib, ta'lim muassasasida egallangan bilimlari test topshiriqlari orqali tushunganlik darajasi aniqlandi. Tajriba-sinov ishlari ta'lim jarayonining ham nazariy (ma'ruza), ham amaliy (amaliy mashg'ulot va mustaqil ta'lim) qismlarida olib borildi va har bir ta'lim turi bo'yicha o'zining fan o'qituvchilari jalb qilindi. Olib borilgan ishlardan kelib chiqib kasbiy malaka va ko'nikmalarni shakllantirish maqsadida fanlararo aloqadorlik, shuningdek, fanlarning oddiydan murakkabga tomon o'qitilishi inobatga olinib, fanning namunaviy va ishchi dasturlari ishlab chiqildi.

Olib borilgan tajriba-sinov ishlarining natijalari 3 ta o'quv yilining tajriba va nazorat guruhlarida tajriba boshida o'tkazilgan test sinovlari asosida ifodalangan (3.3-jadvalga qarang).

Integratsiyalashgan fanlar namunaviy dasturi, uni o'quv jarayonida qo'llash metodikasining samaradorligini tekshirish bo'yicha pedagogik tajriba-sinov ishlari tadqiqotchi tomonidan shu fan professor-o'qituvchilari hamda amaliyotchi o'qituvchilar bilan hamkorlikda o'tkazildi.

Tadqiqot tajriba-sinov ishlariga tayyorgarlik hamda ularni olib borish davrida o'rganilayotgan mavzular bo'yicha o'quv materiallarining mazmuni to'la bayon etilgan reja va matnlar tuzildi.

3.3-jadval

Jamoat salomatligi, Valeologiya, Gigiyena, Ichki kasalliklar va Reabilitologiya fanlari mazmunidagi integratsiyalashgan mavzular bo'yicha talabalarning kreativlik darajalari (barcha mashg'ulot turi bo'yicha) tajriba boshida

№	OTM	Tajriba guruhi (236 nafar respondent)						Nazorat guruhi (212 nafar respondent)					
		A'lo		Yaxshi		Qoniqarli		A'lo		Yaxshi		Qoniqarli	
		soni	%	soni	%	soni	%	soni	%	soni	%	soni	%
1	TTA Urganch filiali	9	24	12	22	42	29	6	23	18	28	36	30
2	Buxoro davlat tibbiyot instituti	19	50	27	49	43	30	11	42	27	42	40	33
3	Samarqand davlat tibbiyot instituti	10	26	16	29	58	41	9	35	20	31	45	37
Jami:		38	100	55	100	143	100	26	100	65	100	121	100

O'quv-uslubiy qo'llanmalar va ma'ruza matnlari chop ettirildi. Tadqiqot doirasidagi jamoat salomatligi, valeologiya, gigiyena, reabilitologiya, terapiya fanlaridan interfaol ta'lim texnologiyalari va metodlaridan foydalanilgan holda o'quv mashg'ulotlari o'tkazildi. Fan mavzularini bayon etishda pedagogik texnologiya elementlaridan foydalanish yuzasidan didaktik materiallar va har bir dars uchun uslubiy ko'rsatmalar ishlab chiqildi. O'quv predmetining o'quv-uslubiy majmuasi tuzildi.

Tajriba-sinov ishlari avvalida va ularni o'tkazish davomida fan maqsad-mazmunini ochib beruvchi materiallarni, tajriba-sinov ishining natijasi tadqiqot

ilmiy natijalarini tasdiqlashga xizmat qildi. Tajriba-sinov ishlari jarayonida talabalar bilim darajasining o'sib borishi kuzatildi. Fanlardan berilgan ma'lumotlarni o'rganish, analiz qilish, yangi bilimlarni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish, egallangan bilimlarni amaliyotga tatbiq etish qobiliyatini rivojlantirish, talabalarining ijodiy faolligini, integrativlik qobiliyatini rivojlantirish tadqiqotning eng asosiy parametrlari sifatida olindi.

Tadqiqot davomida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanildi hamda pedagogik o'yinlar tashkil etildi. Mashg'ulotlar jarayonida foydalanilgan ta'lim metodlari o'qituvchi va talabalar o'zaro hamkorligini yuzaga keltiruvchi - maxsus tashkil qilingan kreativlikni rivojlantirishga qaratilgan topshirivlardan iborat bo'ldi.

Tadqiqot davomida mashg'ulot yoki kurs ishi uchun maqsadga yo'naltirilgan mazmunni tanlash, o'qituvchilarining o'quv materialini talabaga yetkazib berish usullarini namoyish etish, tahlil qilish, talaba olgan bilimni pedagogik amaliyot davrida qo'llay olishi uchun ko'rsatmalar asosida bajarildi.

Tajriba oxirida esa talabalardan integratsiyalashgan fanlardan oraliq nazorat ishlari va savolnomalardan sinovlar, shuningdek, amaliy ishlarini bajarishda elektron darslikdan foydalanib olib borilgan mashg'ulotlarda egallangan bilim va ko'nikma hamda kompetensiyalarini baholanishi natijasi ishlab chiqilgan baholash mezonini yordamida amalga oshirildi (3.4-jadvalga qarang).

Yuqoridagi jadvallardan ko'rinib turibdiki, tajriba guruhlarida nazorat guruhlariga nisbatan bo'lajak shifokor mutaxassislarning kreativlik kompetensiyasini rivojlantirish mezonlarining barchasi bo'yicha sezilarli o'zgarishlar kuzatilgan.

Tajriba-sinov ishlari davomida guruhdagi talabalarining bilim, ko'nikma va kompetensiyalari darajalari davlat ta'lim standartlari talablariga javob berishi hisobga olindi. Tajriba-sinov asosida mutaxassislik fanini axborot va pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish samaradorligini aniqlash uchun talabalardan olingan yakuniy savollar, test, loyihalar va umumlashtiruvchi mashg'ulotlarning natijalari sifat va miqdor bo'yicha tahlil qilindi.

3.4-jadval

**Jamoat salomatligi, valeologiya, gigiyena fanlari mazmunidagi
integratsiyalashgan mavzular bo'yicha talabalarning kreativlik darajalari
(barcha mashg'ulot turi bo'yicha) tajriba oxirida**

№	OTM	Tajriba guruhi (236 nafar respondent)						Nazorat guruhi (212 nafar respondent)					
		A'lo		Yaxshi		Qoniqarli		A'lo		Yaxshi		Qoniqarli	
		soni	%	soni	%	soni	%	soni	%	soni	%	soni	%
1	TTA Urganch filiali	35	28	24	30	11	33	15	26	26	31	22	31
2	Buxoro davlat tibbiyot instituti	45	37	30	38	10	30	20	35	32	38	21	30
3	Samarqand davlat tibbiyot instituti	43	35	26	33	12	36	22	39	27	32	27	39
Jami:		123	100	80	100	33	100	57	100	85	100	70	100

O'tkazilgan tajriba ishlarida o'qitish jarayonining samaradorligini oshirishni baholashga doir bir qancha usullardan foydalanildi. Tajriba natijalarini tahlil qilish jarayonida bir qator olimlarning statistik ma'lumotlarni qayta ishlab chiqishga oid usullaridan foydalanish metodlari o'rganib chiqildi va tajriba-sinov ishlariga tatbiq qilindi (3.5-jadvalga qarang).

3.5-jadval

Integrativ-kreativ fikrlash jarayonini baholash mezonlari

Fikrlashda kreativ ko'nikma yoki jarayonning namoyon bo'lishi	1 U qadar yorqin emas	2 Bir qadar yorqin	3 Yetarli darajada yorqin	4 Juda yorqin
Tezkorlik	Bitta fikr yoki kreativlikka muvofiq keladigan fikr mavjud emas	Bir nechta kreativlikka muvofiq fikr mavjud	Ayrim fikrlarini qo'llab-quvvatlash mumkin	Ko'plab fikrlarini qo'llab-quvvatlash mumkin

O'zgaruv- chanlik	Bir yoki ikki turli ko'rinishdagi g'oyalar yoki o'zgarishlar	Juda oz g'oya va o'zgarishlar bir-biridan farq qiladi	Ayrim g'oya va o'zgarishlar bir-biridan farq qiladi	Ko'plab g'oya va o'zgarishlar bir-biridan farq qiladi
Yangi fikrlarning mavjudligi	O'zgalarning g'oyalari boshqa talqinda qo'llanilgan	O'ziga xos g'oyalar juda oz	Ayrim g'oyalar o'ziga xos	Juda noyob yoki o'ziga xos g'oyalar mavjud
Tadqiq etish	Tavsif juda oz	Ayrim detallar va dalillar ochib berilgan	Detallar yetarlicha tavsiflanganligi sababli ularni chuqur tushunishga imkon beradi	Favqulotda tadqiq etilgan; darhaquqat umumiy kartinani bezaydi
Yangilik	Oddiy g'oyalarning bayon etilishidagi rejalashtirish va tashkillashtirishda qiyinchiliklar mavjudligi sababli, undan foydalanish mumkin emas	Bir necha novatorlik g'oyalarini rejalashtirish va ular asosida faoliyatni tashkil etishga imkon beruvchi tuzilma qo'llanilgan; undan amalda foydalanish mumkin	Yangi va mos keluvchi novatorlik g'oyalarini rejalashtirish va ular asosida faoliyatni tashkil etishga imkon beruvchi tuzilma qo'llanilgan; undan amalda foydalanish mumkin	Yangi, qo'llab-quvvatlash mumkin bo'lgan, yanada samarali va amaliy qiymatga ega novatorlik g'oyalarini rejalashtirish va ular asosida faoliyatni tashkil etishga imkon beruvchi tuzilma qo'llanilgan; undan amalda foydalanish mumkin
Kreativ muammonin g jarayonni hal qila olishi	Jarayonni hal qiluvchi kreativ muammo qo'llanilmagan	Jarayonni hal qiluvchi, biroq, ayrim kamchiliklarga ega muammo yoki samarali bo'lmagan qarashlar qo'llanilgan	Jarayonni hal qiluvchi kreativ fikrlash unsurlari qo'llanilgan yoki kreativ fikrlash to'la namoyon bo'ladi	Murakkab, o'ziga xos bo'lmagan yechimga olib keluvchi jarayonni hal qilishga yordam beradigan kreativ muammo qo'llanilgan

3.2. Pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalarining matematik statistik tahlili

Tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalarini o'qitishning integrativ-kreativ imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha tajriba-sinov ishlariga Buxoro davlat tibbiyot instituti, Toshkent tibbiyot akademiyasining Urganch filiali hamda

Samarqand davlat tibbiyot instituti talabalaridan 448 nafar respondentlar ishtirok etdi.

Integrativ-kreativ yondashuv asosida talabalarni o'qitishga oid pedagogik tizimning samaradorlik darajasini statistik tahlil asosida ko'rsatishga harakat qildik.

Fanlararo integratsiya asosida kreativlik xususiyatlarni tarkib toptirish jarayonini tashkil etish bir qator parametrlar asosida amalga oshiriladi. Jumladan, maqsadiga ko'ra, mazmuniga asoslangan holda, tashkil etish usullari va shakllariga ko'ra, natijalari asosida, ko'rsatilgan tarkibiy qismlar bo'yicha jarayon sub'yektlari orasidagi o'zaro munosabat va ularning egallagan mavqelariga ko'ra. Fanlararo integratsiya asosida kreativlik xususiyatlarni tarkib toptirish darajalari o'ta murakkab bo'lib, u mutaxassislar bilan talabalarning o'zaro hamkorligi asosida boshqariladi.

Tadqiqotda tajriba-sinov ishlarini tashkil etishning takomillashtirilgan va samarali metodikasini ishlab chiqish, usul va vositalarni aniqlash, bosqichlarni belgilash va ular o'rtasidagi izchillik va izchillikni ta'minlashga katta e'tibor qaratildi, ijobiy qaror qabul qilish barcha bosqichlarda asosiy maqsad hisoblanadi.

Ilmiy ishning olingan natijalarining ishonchliligi natijalarni qayta ishlash, matematik-statistik usul bilan olingan.

Tadqiqot doirasida o'tkazilgan tibbiyot fakulteti talabalarining samarali ta'lim texnologiyalari va uslublari asosida ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish bo'yicha tajriba-sinov ishlari natijasida ko'plab treninglar tashkil etildi va o'tkazildi. Talabalarning asosiy fan bo'yicha bilim darajasi oshdi. Har bir tugallangan o'quv yili uchun ma'lumotlar olingan.

Tajriba-sinov ishlari anketa-so'rovnomalar, avtomatlashtirilgan ko'p variantli darajalangan test, o'yin texnologiyalaridan foydalanib o'tkazildi.

O'tkazilgan pedagogik tajriba-sinov ishida, olingan ma'lumotlarga ko'ra, talabalarning sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish yo'nalishida bilim, ko'nikma va tajribalarni o'zlashtirish darajasiga katta e'tibor qaratish zarurligi tasdiqlandi.

Shu munosabat bilan “Jamoat salomatligi” fanidan o‘quv qo‘llanma va uning asosida metodika ishlab chiqilib, o‘quv jarayoniga joriy etildi.


Bunda asosan ko‘p darajali topshiriqlar to‘plami, ko‘p variantli avtomatlashtirilgan test, intellektual kompyuter o‘yinlari, videodars, glossariydan foydalanilib, anketa-so‘rovnoma avtomatlashtirilgan darajalangan ko‘p variantli testlar asosida baholandi. Olingan natijalar tahlil qilinib, sinov va nazorat guruhleri taqqoslandi (3.6-jadvalga qarang).

3.6-jadval


Bo‘lajak shifokorlarning integrativ yondashuv asosida kreativ xususiyatlarini rivojlantirish metodikasi yuzasidan o‘tkazilgan tadqiqot bo‘yicha yakuniy taqsimot

	Guruhlar	Talabalar soni	O‘zlashtirish darajalari					
			A‘lo		Yaxshi		Qoniqarli	
			soni	%	soni	%	soni	%
Tajribadan oldin	Tajriba guruhi	236	38	16	55	23	143	61
	Nazorat guruhi	212	26	12	65	31	121	57
Tajribadan keyin	Tajriba guruhi	236	123	52	80	34	33	14
	Nazorat guruhi	212	57	27	85	40	70	33

Olingan natijalarni tahlil qilinib, tajriba va nazorat guruhleri taqqoslandi. Yuqoridagi jadval ma’lumotlarini taqqoslash maqsadida quyidagi diagpammani hosil qilamiz (3.3- va 3.4-rasmlarga qarang).



3.3-rasm. Tajriba boshidagi natijalar



3.4-rasm. Tajriba yakunidagi natijalar

Chizilgan diagpammaning har biri statistik jadval normal taqsimotga ega bo'lgan bosh to'plamlardan olinganligi haqidagi faraz-gipotezani oldinga surish mumkin ekanligini ko'rsatadi. Diagrammadan ko'rinib turibdiki, tajriba guruhidagi yuqori va o'rta ko'rsatkichlar nazorat guruhi ko'rsatkichlaridan yuqori. Tajriba-sinov ishining yakuniy natijalari yuqorida keltirilgan 3.5-jadval ma'lumotlari asosida matematik statistik tahlillar quyida keltiriladi.

Tajriba guruhidagi baho ko'rsatkichlari va talabalar sonini mos ravishda X_i , n_i lar va shu kabi nazorat guruhidagi baho ko'rsatkichlari va talabalar sonini mos ravishda Y_i , m_i lar orqali belgilab olib, quyidagi statistik guruhlangan variatsion qatorlarga ega bo'lamiz, shuningdek, yuqori ko'rsatkichni 3 ball bilan, o'rta ko'rsatkichni esa 2 ball bilan va past ko'rsatkichni 1 ball bilan belgilaymiz.

Tajriba guruhining o'zlashtirish ko'rsatkichlari:

$$(1) \begin{cases} X_i & 3; & 2; & 1; \\ n_i & 123 & 80 & 33 \end{cases} \quad n = \sum_{i=1}^3 n_i = 236$$

Nazorat guruhining o'zlashtirish ko'rsatkichlari:

$$(2) \begin{cases} Y_i & 3; & 2; & 1; \\ m_i & 57 & 85 & 70 \end{cases} \quad m = \sum_{i=1}^3 m_i = 212$$

Statistik tahlil o'tkazishni qulaylashtirish maqsadida yuqoridagi variatsion qatorlardan n_i va m_j takroriylik (chastota)larni mos statistik ehtimollik formulalari

$$p_i = \frac{n}{n_i} \text{ va } q_i = \frac{m}{m_i} \text{ asosida hisoblaymiz.}$$

Tajriba guruhidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari:

$$(3) \begin{cases} X_i & 3; & 2; & 1; \\ n_i & 0,53 & 0,34 & 0,13 \end{cases} \quad \sum_{i=1}^3 p_i = 1$$

Nazorat guruhidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari:

$$(4) \begin{cases} Y_i & 3; & 2; & 1; \\ m_i & 0,28 & 0,41 & 0,31 \end{cases} \quad \sum_{i=1}^4 q_i = 1$$

Statistik tahlilni har ikki guruh bo'yicha o'rtacha o'zlashtirishlarini hisoblab, qiyoslashdan boshlaymiz. O'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichlari quyidagi natijalarni berdi:

$$\bar{x} = \sum_{i=1}^4 p_i X_i = 0.53 \cdot 3 + 0.34 \cdot 2 + 0.13 \cdot 1 = 2.4$$

$$\bar{x}\% = \frac{2.4}{3} \cdot 100\% = 79.9\%$$

$$\bar{y} = \sum_{i=1}^4 q_i Y_i = 0.28 \cdot 3 + 0.41 \cdot 2 + 0.31 \cdot 1 = 1.97$$

$$\bar{y}\% = \frac{1.97}{3} \cdot 100\% = 65.7\%$$

Demak, sinov guruhlaridagi o'zlashtirish nazorat guruhlaridagi o'rtacha o'zlashtirishdan $(79.9 - 65.7)\% = 14.2\%$ ga yuqori ekan. Bu esa, o'z navbatida, $\frac{79.9\%}{65.7\%} = 1.2$ barobar ortiqqligini anglatadi.

Demak, tajriba-sinov ishlari so'nggida respondentning bilim ko'rsatkichlari o'rta hisobda 14.2% ga oshgan.

Endi tajriba-sinov ishlari xatoliklarini baholashga o'tamiz. Dastlab tanlanmalarining dispersiyalarini hisoblaymiz:

$$S_x^2 = \sum_{i=1}^4 p_i X_i^2 - (\bar{x})^2 = 0.53 \cdot 3^2 + 0.34 \cdot 2^2 + 0.14 \cdot 1^2 - 2.4^2 = 0.51.$$

$$\text{Standart xatolik: } S_x = \sqrt{0.51} \approx 0.71.$$

$$S_y^2 = \sum_{i=1}^4 q_i Y_i^2 - (\bar{y})^2 = 0.28 \cdot 3^2 + 0.41 \cdot 2^2 + 0.31 \cdot 1^2 - 1.97^2 = 0.59.$$

$$\text{Standart xatolik: } S_y = \sqrt{0.59} \approx 0.77.$$

Bu xatoliklarning o'rta qiymatlarga nisbatan og'ish foizlarini variatsiya koeffitsientlari orqali hisoblaymiz.

Buni yanada aniqroq ko'rsatish maqsadida har ikki statistik tanlanma bo'yicha o'rta qiymat aniqliklarini biz variatsiya koeffitsientlari orqali, ya'ni C_x va C_y formula orqali hisoblaymiz:

$$C_x = \frac{S_x}{\sqrt{n \cdot \bar{x}}} \cdot 100\% = \frac{0.71}{\sqrt{236 \cdot 2.4}} = \frac{71}{36.87} = 1.9\%$$

$$C_y = \frac{S_y}{\sqrt{n \cdot \bar{y}}} \cdot 100\% = \frac{0.77}{\sqrt{212 \cdot 1.97}} = \frac{77}{28.68} = 2.7\%$$

Har ikki xatolik ko'rsatkichlari mumkin hisoblangan 1% lik chegaradan yetarli darajada kam ekan. Bu esa tajriba-sinov ishlari qoniqarli o'tganligini bildiradi.

Endi biz har ikki statistik tanlanmalarni nazariy o'rta qiymatlari tengligi haqidagi $H_0: a_x = a_y$ gipotezani Styudent mezoni yordamida tekshiramiz.

Shu maqsadda mos statistikani hisoblaymiz:

$$T_{xy} = \frac{\bar{x} - \bar{y}}{\sqrt{\frac{S_x^2}{n} + \frac{S_y^2}{m}}} = \frac{2.4 - 1.97}{\sqrt{\frac{0.51}{236} + \frac{0.59}{212}}} = \frac{0.43}{0.07} = 6.14$$

Styudent mezonining 95% lik kritik nuqtasi $t_{kp}(0,95) = 1,96$ bo'lib, statistikaning haqiqiy qiymati undan yetarlicha kattadir:

$$T_{x,y} = 6.14 > 1.96 = t_{kp}(0.95)$$

